

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**  
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT**  
**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**  
**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH FAKULTETI**

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

fakultet dekani

f.f.d. **B.Abdushukurov**

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018-yil

5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishi  
4-bosqich 403-guruh talabasi **Saydullayeva Shoira Qahramon qizining**  
**“Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida ustoz-shogird an’anasi**  
**talqini”** mavzusida yozgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar**

\_\_\_\_\_ **H. Jo‘rayeva**

O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi  
kafedrası o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:**

\_\_\_\_\_ **f.f.n. D.Yusupova**

O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik  
kafedrası dotsenti

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

O‘zbek adabiyotini o‘qitish  
metodikasi kafedrası mudiri  
f.f.d. **Z.Mirzayeva**

\_\_\_\_\_ **f.f.d., prof. H.Homidiy**

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018-yil

**TOSHKENT**  
**2018**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**  
**O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti O‘zbek adabiyotini o‘qitish**  
**metodikasi kafedrasining 2018-yil 15-maydagi 26-sonli yig‘ilishi**  
**bayonnomasidan**  
**KO‘CHIRMA**

**Qatnashdilar:** kafedra mudiri f.f.d. Z.Mirzayeva, ped.f.d., prof. R.Niyozmetova, f.f.n.dotsent T.Matyoqubova, f.f.n. G.Jo‘rayeva, f.f.n. H.Ahmedov, kafedra o‘qituvchilari: H.Jo‘rayeva, G.Tursunova, S.Qambarova, D.Qoraboyevlar.

**KUN TARTIBI:**

1. 403-guruh talabasi Saydullayeva Shoira Qahramon qizining 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha “Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida ustoz-shogird an’anasi talqini” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi muhokamasi.

**TINGLANDI:** Bitiruvchi Saydullayeva Shoira Qahramon qizi “Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida ustoz-shogird an’anasi talqini” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yuzasidan ma’lumot berdi. Talaba ma’ruzasida mavzuning navoiyshunoslikda hozirga qadar hali jiddiy tadqiq etilmagan muammoga bag‘ishlanganligini ta’kidladi. Navoiy tazkirasining boshqa tazkiralardan farqli jihatlari, tazkiradagi turli toifa vakillarining adabiyotga daxldor faoliyatini qiyosiy-tipologik usulda o‘rganganligi, ilk marotaba “Majolis un-nafois”da ustoz-shogird masalasini tadqiqotchilik metodi asosida yoritishga harakat qilgani, bitiruv malakaviy ishini yozishda “Majolis un-nafois”ning ilmiy-tanqidiy matnidan unumli foydalanganligi haqida ma’lumot berdi.

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva*

Saydullayeva Shoira taklif va tavsiyalarini, mustaqil tuzgan savol va topshiriqlarini havola qildi. Bitiruv ishi natijalari va xulosalari yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bayon etdi.

### **SO‘ZGA CHIQQILAR:**

Yig‘ilish raisi f.f.d. Z.Mirzayeva va a‘zolar bitiruvchining ishi yuzasidan o‘zlarining fikrlarini bayon etdi va tegishli tavsiyalarni berdi.

Ushbu bildirilgan fikr-mulohazalarga muvofiq kafedra majlisida

### **QAROR QILINDI:**

1. 403-guruh talabasi Saydullayeva Shoira Qahramon qizining 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha “Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida ustoz-shogird an‘anasi talqini” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya qilinsin.

2. Bitiruv malakaviy ishiga f.f.d., prof. H.Homidiy va f.f.n. D.Yusupovalar taqrizchi qilib belgilansin.

Rais: f.f.d. Z.Mirzayeva

Kotiba: G.Tursunova



5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich  
403-guruh talabasi **Saydullayeva Shoira Qahramon qizining**  
**“Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida ustoz-shogird**  
**an’anasi talqini”** mavzusida yozgan bitiruv malakaviy  
ishiga ilmiy rahbar

## XULOSASI

Alisher Navoiy ijodiy merosi o‘zbek adabiyotshunosligida asrlar davomida o‘rganib kelingan. Shoir merosi tadqiq etilgani sari o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalar ravshanlashadi. Hozirga qadar “Majolis un-nafois” tazkirasi Oybek, Porso Shamsiyev, Vohid Abdullayev, Suyima G‘aniyeva singari olimlar tomonidan o‘rganilgan. Hattoki, tazkiraning mukammal ilmiy-tanqidiy matni yaratilgan.

Talaba Shoira Saydullayevaning “Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida ustoz-shogird an’anasi talqini” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi navoiyshunoslik hali jiddiy tadqiq etilmagan muammoga bag‘ishlanganligi dolzarbdir. Ishda “Majolis un-nafois” tazkirasining tub zaminiga singdirib yuborilgan mazmun-mohiyat, ya’ni Navoiy pedagogik qarashlarining aks etishi masalasi jiddiy kuzatilgan.

Talaba bitiruv malakaviy ishida tazkiraning har bir majlisini sinchkovlik bilan kuzatgan. Navoiyning adabiy-estetik qarashlari har bir ijodkor faoliyatiga munosabatini o‘rgangan. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi quyidagilarda aks etadi:

1. Navoiy tazkirasining boshqa tazkiralardan farqli jihati tarixiy-qiyosiy metod asosida jiddiy o‘rganilgan.
2. Tazkiradagi turli toifa vakillarining adabiyotga daxldor faoliyati talaba tomonidan qiyosiy-tipologik usulda o‘rganilgan.

3. Ilk marotaba “Majolis un-nafois”da ustoz-shogird masalasi tadqiqotchilik metodi asosida yoritilgan.

4. Talaba “Majolis un-nafois” tazkirasini ilmiy-tanqidiy matnidan unumli foydalangan. Bu esa fanlararo uygʻunlik, yaʼni matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasining adabiyot oʻqitish metodikasi bilan bogʻliq holda oʻrganishni taʼminlagan.

Shu oʻrinda mavzuning ancha salmoqli ekanligi, talaba sof nazariy maʼlumotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, metodik jihatdan asoslab berishda ancha izlanganligini ham taʼkidlash lozim.

Men talaba Shoira Saydullayevaning ilmiy salohiyatini qadrlagan holda, uning kelajakda ilmiy tadqiqot olib borishga keng imkoniyatlari yetarli ekanligini taʼkidlab oʻtishni joiz deb bilaman.

Ishda baʼzi oʻrinlarda juzʼiy kamchiliklar ham koʻzga tashlanadi. Xususan, sahifalarda uslubiy gʻalizliklar, xulosalarning yetarli emasligi maʼlum boʻladi. Lekin bu kabi holatlar ishning umumiy saviyasiga taʼsir qilmaydi.

Men Shoira Saydullayevaning “Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida ustoz-shogird anʼanasi talqini” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini yuqori baholagan holda himoyaga tavsiya etish mumkin deb hisoblayman.

**Ilmiy rahbar:**

**H.Joʻrayeva**

Oʻzbek adabiyotini oʻqitish metodikasi kafedrası oʻqituvchisi



## MUNDARIJA

Kirish.....	7
<b>I BOB. “MAJOLIS UN-NAFOIS” ASARI SHARQ TAZKIRACHILIGI TARIXIDA YANGI NAMUNA SIFATIDA.....</b>	<b>11</b>
1.1. Qiyoslash, an’ana va o‘ziga xoslik .....	11
1.2. Tazkirada Navoiy adabiy-estetik qarashlari talqini.....	18
<b>II BOB. “MAJOLIS UN-NAFOIS”DA PEDAGOGIK QARASHLAR IN’IKOSI.....</b>	<b>23</b>
2.1. Tazkirada Navoiyning ustozlarga munosabati.....	36
<b>III BOB. TAJRIBA-SINOV: NAVOIY TAZKIRASINI TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARIDA O‘RGANISH MASALASI.....</b>	<b>42</b>
3.1. Noan’anaviy usulda “Majolis un-nafois” tazkirasini o‘rganish metodikasi.....	42
3.2. “Majolis un-nafois”ni o‘rganishda yangicha yondashuv.....	46
3.3. Olib borilgan amaliy ishlar bo‘yicha tahlil.....	53
Xulosa.....	68
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	72



## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** “Bizning o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadimiz yurtimizda yashab ijod etgan ulug‘ zotlarning hayot yo‘li va qoldirgan merosini to‘liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma’rifat, ilm-u fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o‘zida uyg‘unlashtirgan xalqimizning ma’naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur o‘rganish, uning ma’no-mazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyolilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz, ham farz bo‘lishi shart, deb hisoblayman. Nega deganda, o‘zimiz – bugun shu yurtda yashayotgan vatanparvar insonlar bu vazifani o‘z zimmamizga olmasak, chetdan kelib hech kim bu ishni qilib bermaydi”<sup>1</sup>

Darhaqiqat, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek ona vatanimizda yashab ijod etgan buyuk bobokalonlarimizning bebaho merosini o‘zimiz o‘rganishimiz, kelajak avlodga munosib tarzda yetkazib bermog‘imiz lozim.

O‘zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan zotlardan biri – bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo‘tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliqi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so‘z yuritamiz. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, shon-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir. Inson qalbining quvonch-u qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. –B.21.

Navoiy o‘z asarlari bilan nafaqat adabiyot, tarix, ilm-u fan rivojiga hissa qo‘shdi, balki o‘zbek xalqi va, umuman, turkiy xalqlar ma’naviy dunyosini boyitishga xizmat qildi. Uning adabiy merosini o‘rganish bugungi kun yoshlari uchun adabiy didni yuksaltirish, tarixni o‘rganish, ma’naviy qadriyatlarni, o‘zlikni anglashda nihoyatda ahamiyatlidir. “Diliga Navoiy so‘zlari o‘rnashgan odam, o‘zi istasin-istamasin, odamiylik sharafi, hayot zavq-shavqi va komillik kuch-qudratini keng idrok etadi. Navoiy saboqlariga amal qilgan kishi o‘z-o‘zidan xalq tashvishlariga sherik bo‘lishga bel bog‘laydi. Fikrni-fikrsizlikka, ilm-ma’rifatni – nodonlik, gumrohlik va jaholatga qarshi qurol o‘rnida ishlatadi. Mutafakkir bobomizning ta’kidlashlariga ko‘ra esa:

*Haqni botildan birovkim qildi farq,  
Adli birla ravshan etti G‘arb-u Sharq.*

Xullas, Navoiyni mehr va ixlos ila yetarli darajada bilish – din-u diyonat, imon-u e’tiqod, muruvvat va shafqat kuchiga ishonch demak”<sup>2</sup>.

Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz. Lekin ayni paytda , biz bir haqiqatni ham yaxshi anglaymizki, faqat o‘tmishga, ajdodlar merosiga mahliyo bo‘lib yurishning o‘zi bilan uzoqqa borib bo‘lmaydi.

Shuning uchun ham biz yoshlar o‘tmishdagi ota-bobolarimiz ijodiy merosini asrab-avaylash, ularni bizdan keyingi avlodlarga munosib tarzda yetib borishini ta’minlash maqsadida ushbu bitiruv malakaviy ishimizni bobomiz Mir Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asariga bag‘ishladik. Zero, biz o‘rganayotgan Navoiy asarlari o‘lmas, bebaho qiymatga egadir.

Shu o‘rinda bitiruv malakaviy ishimiz Alisher Navoiyning o‘zbek tazkirachiligiga asos solgan, unga tamal toshini qo‘ygan “Majolis un-nafois” asari xususida bo‘ladi. O‘rganayotgan mavzuimiz tazkiradagi ustoz-shogird masalasi

---

<sup>2</sup> Хаққул И. Навоийга қайтиш. 2- китоб. – Т.: Фан, 2011. –Б.7.



■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva* bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, unda biz asosan tazkirada keltirilgan majlislarning didaktik ahamiyati va mazmuni, pedagogik qarashlariga to‘xtalib o‘tamiz.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** “Majolis un-nafois” tazkirasi o‘zbek tazkirachiligida yangi an’anaga asos solgani uchun ham uni yaratilib, kitobxonlarga taqdim etilgan vaqtdanoq o‘rganilib, ko‘plab tillarga tarjima qilingan. Bu haqda bitiruv malakaviy ishimiz boblarida to‘xtalib o‘tganmiz. Mavzuimizning o‘rganilishiga keladigan bo‘lsak, o‘zbek navoiyshunoslaridan Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek hamda Porso Shamsiyevlar<sup>3</sup> tazkiraning matnini tayyorlab, ommaga taqdim etishgan. Eng mukammal o‘rgangan navoiyshunos olim professor Suyima G‘aniyeva hisoblanadi. Ular Leningrad universitetining aspiranturasida tahsil olayotganlarida “Majolis un-nafois”ning ilmiy-tanqidiy matnini eng qadimiy va nodir qo‘lyozmalaridan foydalanib, uni har tomonlama tadqiq etib, tayyorlaganlar. Tazkira majlislarini ham to‘liq o‘rganib, uni badiiy jihatdan yuksak asar ekanligini isbotlab berganlar.

**Bitiruv malakaviy ishining manbalari.** Mazkur bitiruv malakaviy ishida bevosita professor, navoiyshunos olim Suyima G‘aniyevaning “Majolis un-nafois” asariga 1961–1966-yillarda tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matni asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Qo‘shimcha manbalardan Suyima G‘aniyevaning “Kitob dunyosi” gazetasida chop etilgan maqolalari, “O‘zbek adabiyoti tarixi” (5 tomlik) kitobi, N.M.Mallayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” (2-tomi) kitobi, Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning maqolalari, hozirga qadar nashr etilgan 20, 15, 10 tomlik Alisher Navoiy asarlarining mukammal to‘plamlaridan hamda internet ma’lumotlaridan foydalandik.

**Ishning maqsad va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi – “Majolis un-nafois” tazkirasidagi shoirning pedagogik qarashlarini, ustoz-shogird masalasini o‘rganish, tahlil qilish, kerakli xulosalar chiqarishdan iborat. Shu maqsadni amalga oshirishda biz o‘z oldimizga quyidagi vazifalarni qo‘ydik:

---

<sup>3</sup> Ганиева С. Мажолисун нафоис. –Тошкент: Шарк, 1961. –Б.39.

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva*

- “Majolis un-nafois” tazkirasining tazkirachilik an’analaridagi o‘rnini ko‘rsatib berish;

- “Majolis un-nafois”dan avval yaratilgan tazkiralar, ularning farqli jihatlari haqida qisqacha bo‘lsa-da ma’lumot berish;

- Tazkiraning o‘zbek tazkirachiligiga asos bo‘lgani, uning badiiy qimmatini ko‘rsatib berish;

- Tazkirada Navoiyning pedagogik qarashlarini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish masalalarini talqin qilish;

- “Majolis un-nafois” asarini o‘rganishda yangicha yondashuvdan foydalanish;

- Asar bo‘yicha olib borilgan izlanishlardan asosiy xulosalarni keltirish.

**Ishning yangiligi.** Bitiruv malakaviy ishida “Majolis un-nafois” tazkirasining hozirga qadar o‘rganilmagan jihati, ya’ni Navoiy pedagogik qarashlarining tazkiradagi in’ikosi, uztoz-shogird masalasi talqini ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Ilk bora tazkiradagi ta’limiy-tarbiyaviy masalalar tadqiq etilgan.

**Ishning tuzilishi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi mundarija, kirish, 3 ta bob, (o‘z o‘rnida ushbu boblar mavzuni to‘liqroq ochib berish maqsadida 2 tadan fasllarga bo‘lingan), xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.



## I BOB. “MAJOLIS UN-NAFOIS” ASARI SHARQ TAZKIRACHILIGI

### TARIXIDA YANGI NAMUNA SIFATIDA

#### 1.1. Qiyoslash, an’ana va o’ziga xoslik

She’riyat mulkining sultoni, benazir iste’dod sohibi, o’zbek mumtoz adabiyotiga o’zining ijodi bilan munosib hissa qo’shgan Mir Alisher Navoiy hazratlarining biz yosh avlodga meros qilib qoldirgan oltinga teng asarlarini o’qib, o’rganmog’imiz har birimiz uchun ham qarz, ham farzdir. Uning nomi va merosi Gomer va Dante, Rudakiy va Firdavsiy, Nizomiy va Shota Rustaveli, Sa’diy va Jomiy, Shekspir va Balzak, Pushkin va Tolstoy, Rabindranat Tagor va Lu Sin kabi ulkan so‘z san’atkorlarining nomi va merosidek o‘lmasdir<sup>4</sup>.

Navoiy butun faoliyati va ijodini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san’at va adabiyot taraqqiyotiga bag‘ishladi.

Shoir: “Umidim uldurki va xayoling’a andoq kelurki, so‘zim martabasi avjdan quyi enmagay va bu yozgan asarlarimning tantanasi a’lo darajadan o’zga yerni yoqtirmag‘ay”, degan edi<sup>5</sup>.

Ma’lumki, Alisher Navoiy butun mamlakat bo‘ylab madaniy hayotni kuzatib borgan, adabiyot va fanni, san’at va umuman ijodiy ishni rivojlantirishga qo‘ldan kelgancha harakat qilgan. Xuddi shu ma’noda uning “Majolis un-nafois” nomli tazkisasi alohida ahamiyatga molikdir. Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasini birinchi marta 1491-yilda tuzdi. U, “Majolis un-nafois”ning ilmiy-tanqidiy matnini tuzgan Suyima G‘aniyeva ta’kidlaganidek, “Majolis un-nafois”ga juda ko‘p yangilik va qo‘shimchalar kiritib, 1497–1498-yillarda uning ikkinchi, qayta ishlangan nusxasini yaratdi. Ayrim biografik noaniqliklarni bartaraf qildi. “Majolis un-nafois” tazkirachilikda yangi va juda qimmatli asar sifatida vujudga keldi hamda o‘zbek tazkirachiligiga asos bo‘ldi.

<sup>4</sup> Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. –T.,1976. –B.349.

<sup>5</sup> O‘sha kitob, –B.349.

Alisher Navoiy bu asarni yozishdan ko‘zlagan maqsadini asar muqaddimasida quyidagicha bayon etadi: “...bu xujasta zamon va farxunda davron shuaro va xushta’blarikim, Sulton Sohibqiron (ya’ni Husayn Boyqaro – S.G‘.) yumni davlatidin va natijai tarbiyatidin she’rning ko‘prak uslubida, bataxisis g‘azal tavrida barchadin dilosoroq va nishot afzoroqdur, tarkibi salosat va latofatin burung‘ilarga yetkuradurlar va ma’ni nazokat va g‘arobatin ulcha sharti bor, bajo kelturadurlar, otlari ul jamoat zumrasida (ya’ni avval o‘tgan shoirlar qatorida – S.G‘.) bo‘lmoqdin mahrum va so‘zlari ul tartib va qoidada noma’lum uchun shikasta xotirg‘a va sinuq kungulg‘a andoq keldikim, bir necha varaq bitilgay va bu asr shuarosi bila bu davr zurofasi otin anda sabt etilgay, to bu niyozmandlar ham burung‘i shuaro akobiri zaylida mazkur bo‘lg‘aylar va bu payravlar ham ul rahbarlar xaylig‘a qo‘shulg‘aylar”<sup>6</sup>. Ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning boy va ko‘pyoqlama ijodiyotida “Majolis un-nafois” (“Nafis ta’blilar majlisi”) alohida ahamiyatga egadir. Bu asar o‘z tipi e’tibori-la Sharqda namunalari oz bo‘lmagan “Tazkirat ush-shuarolar ” jumlasiga kiradi. Bu kabi tazkiralarda, odatda, ma’lum davrda yashagan shoirlarning qisqacha tarjimayi hollari yoki hayotlarida muhim sanalgan ba’zi faktlar va voqealar, ham ularning ijodiyotlaridan bir-ikki bayt, bir- ikki qit’a namuna tariqasida ko‘rsatilib o‘tiladi. Hozirgi ma’noda adabiyot tarixi va adabiy tanqidchilik mavjud bo‘lmagan zamonlarda, tazkira avtorlari bu kamchilikni, juda ibtidoiy – sodda formada bo‘lsa ham, to‘ldirishga tirishganlar. Arab va eron tillarida tazkiralalar Navoiyga qadar mavjud bo‘lib kelgan bo‘lsa ham, lekin Navoiyning “Majolis un-nafois”igacha o‘zbek tilida shu tipdagi biron asarning yozilganini bilmaymiz<sup>7</sup>.

Shunday qilib, Navoiy o‘z davri adabiyot ahllarining nomlari va ijod namunalarini avlodlarga yozib qoldirishni, ularning xotirasini abadiylashtirishni maqsad qilib oladi va o‘z ona tilida birinchi tazkirani yaratadi. Navoiygacha yozilgan tazkiralarning eng qadimiysi, umuman fors tilidagi ilk tazkira – Muhammad Avfiyning 1222-yilda tuzilgan “Lubob ul-albob”idir. Navoiy “Majolis

<sup>6</sup> Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. 13-том. Мажолисун нафоис. –Тошкент: Фан, 1997.

<sup>7</sup> Ойбек. “Мажолисун нафоис” асари ҳақида. – Тошкент, 1979.

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva* un-nafois”da: “Bas nazm ilmi qoyillari va she’r fani komillarikim, daqoyiq durri pokining bahri ummoni va maoniy la’li otashnokining koni bo’la olg’anlar, bas sharif xayl va aziz qavm bo’lg’aylar, bu jihatdindurkim, alarning nomin otlari va kiromiy sifotlari zamon sahoyifidin va davron safoyihidin mahv bo’lmasun deb tasnif ahli a’liflarida va ta’lif xayli tasniflarida fusuli orosta va abvobi piyrosta qilibdurlar va o’z kitobatlarig’a bu jamoat zikridin zeb beribdurlar. Ul jumladin biri hazrati mahdumi, shayx ul-islomi mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy (madda zilli va irshodahu)dur. Mundoq buzurgvor oliy miqdor “Bahoriston” otlig’ kitobidakim, sekkiz ravza ochibdur va sekkiz ravzai jannat alar xijolatindin el ko’zidin ixtifo pardasig’a qochibdur va oni Sultoni Sohibqiron otizevari bila muzayyal va alqobi gavhari bila mukallal qilibdur, bir ravzasini bu mavzun navoliq balo bilva matbu’ sadolig’ anodil gul bongidin rashki nigorxonai Chin va g’ayrati firdavsi barin qilibdur va Amir Davlatshohkim, Xuroson mulkining asl mirzodalari orasida fazl va donish zevari bila bahramand, faqir va qanoat toji bila sarbalanddur, ham Sulton Sohibqiron otig’a “Tazkirat ush-shuaro” otlig’ kitob bitibdur, voqean base zahmat tortibdur va bu toifani yaxshi jam qilibdur. Bu bobda yana dag’i rasoil va kutub bor”.

Davlatshoh Samarqandiy 1487-yilda “Tazkirai Davlatshohiy” deb ham yuritiladigan “Tazkirat ush-shuaro” asarini yaratdi va asar Navoiy tavsiyasi bilan yaratilgan bo’lib, Navoiyning ijodi va arboblik faoliyati haqida maxsus bob bor.

“Tazkirat ush-shuaro” X-XV asrlarda yashab ijod etgan qalam ahllariga oid faktik ma’lumotlarni, shuningdek, ana shu Xuroson, Movarounnahr, Eron, Ozarbayjon, Hindiston va boshqa viloyatlarda fors-tojik she’riyati rivojiga hissa qo’shgan 150 dan ziyod shoirlar haqidagi rivoyat va hikoyatlarni o’z ichiga oladi.

Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” nomli axloqiy-badiiy asarini 1487-yilda Sa’diy Sheroziyning mashhur “Guliston” asari payravligida yaratadi. Jomiy o’z o’g’li Ziyovuddin Yusufga darslik tarzida yaratgan “Bahoriston” muqaddima va 8 bob (ravza)dan iborat: 1) Oriflar sarguzashti; 2) Ulug’lar hikmatlari; 3) Adolatli shohlar haqida; 4) Sahiylik targ’ibi; 5) Ishqiy hikoyatlar; 6) Hazil mutoyibalar; 7)

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva*  
She'r va shoirlar; 8) Tamsillar. “Bahoriston”ning 7- bobi (ravzasi) tazkira bo‘lib, unda Rudakiydan Hasan Dehlaviyga qadar 30 dan ortiq shoirlar haqida ma’lumot va ular ijodidan namunalar keltiriladi. Tazkirada Navoiy sha’niga aytilgan iliq va samimiy so‘zlar g‘oyat ahamiyatlidir.

Bu tazkiralar adabiyot tarixini o‘rganishga ko‘p yordam berdi. Shunga qaramay, “Majolis un-nafois” kabi yangi bir tazkiraning vujudga kelishiga katta ehtiyoj va zaruriyat bor edi. O‘zbek adabiy tilining ravnaq topishi bu tilda faqat badiiy asarlar yaratishnigina emas, balki ilmiy asarlar, jumladan, adabiyotshunoslikka doir asarlar yaratishni ham taqazo qilar edi. Ana shu ehtiyojlar zaminida Alisher Navoiyning ilmiy filologik merosi “Majolis un-nafois” tazkirasi vujudga keldi. “Majolis un-nafois”gacha bo‘lgan tazkiralar fors-tojik tilida yaratilib, shu adabiyot namoyandalariga bag‘ishlanar edi. O‘zbek mumtoz adabiyotining tobora taraqqiy etib borishi, XV asrda Amiriy, Yaqiniy, Atoiy, Sakkokiy va nihoyat Lutfiy kabi ko‘p tazkiralarda zikr etilishini va ularga munosib o‘rin berilishini talab qilar edi. Bu talabni Navoiy “Majolis un-nafois”da amalga oshirdi. U o‘z asarida salafi Muhammad Avfiy va zamondoshlari Davlatshoh Samarqandiy va Abdurahmon Jomiylardan o‘zgacha yo‘l tutib, tazkirasi ma’lumotlariga ulkan so‘z san’atkori, buyuk adabiyot tanqidchisi sifatida yondashadi. Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasi orqali o‘z davri adabiyotiga o‘zining ilg‘or maqsadlari asosida muayyan yo‘nalish berishga intiladi. Navoiy tazkirasining boshqa tazkiralardan yana bir farqi shuki, unda davrning madaniyati keng aks ettirilgan. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi XV asr o‘zbek va fors-tojik adabiyoti tarixini o‘rganish bilan bir qatorda mazkur davr ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘lishda alohida ahamiyatga ega. O‘sha davr an’anasiga ko‘ra, Navoiy “Majolis un-nafois”ni “tabarruk qilmoq uchun” shayxlardan “Xoja Qosim Anvor zikri bilan” boshlaganini ta’kidlaydi. Qosim Anvordan keyin uning shogirdlari, bulardan so‘ng bir qator movarounnahrlik va xurosonlik shoirlar zikr etiladi<sup>8</sup>.

---

<sup>8</sup> Mallayev N. Ko‘rsatilgan kitob, 537-b.

Tazkira ma'lumotlarini joylashtirish, shoirlar burchini belgilash, adabiyotning yuksak badiiyligi va g'oyaviyligi uchun kurashishda Navoiy g'oyat ilg'or o'rinda turadi. Navoiy tazkirasining eng muhim xususiyati – uning asos e'tibori bilan shoirning o'z zamondoshlariga bag'ishlanganligidir. Mana shu jihatlari bilan “Majolis un-nafois” yozilganidan oz fursat o'tmay Sharq mamlakatlarining shoirlari, tarixchilari, olimlari diqqatini ko'p martalab o'ziga jalb eta boshlagan edi. XVI asrning o'zida “Majolis un-nafois”ning fors tiliga 3 marta tarjima qilinganligi Movarounnahr, Eron va Turkiyada tazkiraga zo'r qiziqish bilan qaralganidan dalolat beradi.

Birinchi tarjima 1521–1522-yillarda Hirotda Tahmasp shohning saroy shoiri Faxriy bin Sulton Muhammad Amiriy tomonidan qilingan. Faxriy o'z tarjimasini safaviylar sulolasining asoschisi Shoh Ismoilga, uning ikkinchi o'g'li Som Mirzo, Amirul umaro Durmishxon Shomlu va vazir Karimiddin Habibulloh Sovajiya bag'ishlaydi. Oxirgi bobini esa Ismoil shohning vaziri – Shoh Husaynga bag'ishlaydi. Faxriy o'z tarjimasini “Latoyifnoma” deb atagan va unga 188 shoir haqida ma'lumot beruvchi to'qqizinchi majlisni ilova qilgan. Bu majlis o'z navbatida yana 9 qismga bo'linib, ulardan birinchisi Navoiyga bag'ishlanadi. U Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan sakkizinchi majlisni qisqartirib tashlab, uning she'rlaridan keltirilgan 164 bayt o'rniga 2 baytni namuna sifatida beradi.

Ikkinchi tarjima Istanbulda 1522–23-yillarda tugallangan. Mutarjimi Muhammad Qazviniy turk sultoni Salim I va uning vorisi Sulaymon I ning saroy tabibi edi. U o'z tarjimasini Sulton ibn Salimga bag'ishlagan edi. Qazviniy asarning nomini shundayligicha qoldiradi, “majlis”larni “behisht” deb ataydi. U ham sakkizinchi majlisni nihoyatda qisqartirib, uni yettinchi majlis oxiriga qo'shib yuboradi va o'zi tarafidan maxsus “behisht” ochadi. Bu yangi bob ikki qismga – ikki ravzaga bo'linadi. Ulardan birinchisida klassik shoirlar, ikkinchisida esa turk sultoni – Sulton Salim she'riyati va uning 150 ta saroy shoiri haqida ma'lumot beradi. Uchinchi tarjima tahminan 1598-yilda Shoh Ali Abdulali tomonidan Nishopurda Dinmuhammad hukmronlik qilgan davrlarida bajarilgan. Bu

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva* tarjimaning tugallanmagan yagona nusxasi Britaniya muzeyida saqlanadi. Faxriy va Qazviniy tarjimalarining qimmatini shundan iboratki, ular asarni tarjima qila turib, shu shoir yoxud ijodkor to‘g‘risida o‘zlari bilgan yoki eshitgan ma’lumot, rivoyat hamda hikoyatlarni keltirib o‘tadilar.

“Majolis un-nafois”ning Toshkentda hijriy 1336-yili (milodiy 1917–1918-yillarda) Muhammad Salim tomonidan “Hujjatul komilin”, “Bog‘i Eram”, “Fazlut tuzkor” nomli asarlar bilan birgalikda bir muqovada toshbosma shaklida nashr etilgani haqida ham ma’lumotlar bor<sup>9</sup>. Birinchi va ikkinchi tarjimalar 1945-yilda Tehronda professor Ali Asqar Hikmat tomonidan bir kitobda nashr etilgan. Asar bir necha marotaba rus tiliga ham tarjima qilingan<sup>10</sup>.

“Majolis un-nafois” XV asr adabiy hayotining muhim bir hujjatidir. Bu asar o‘z davridagi adabiy hayotni ma’lum darajada yoritib berish bilan birga, so‘z san’atining taraqqiyotiga ham xizmat qildi. Adabiyot ahllarini va kitobxonlarni ko‘p yozuvchilarning ijodiy faoliyati, ularning yutuq va kamchiliklari bilan tanishtirdi. U keyingi asrlarga XV asr adabiyoti va adabiy-tanqidiy qarashlarining bir yodgorligi bo‘lib qoldi va tazkirachilik taraqqiyotiga samarali ta’sir etdi. XVI asrning oxiri va XVII asrning boshida o‘tgan ozarbayjonlik adabiyotshunos Sodiqbek kitobdor “Majolis un-nafois”dan ilhomlanib va foydalanib Navoiy ona tilida – o‘zbek tilida “Tazkirai majmaul-havos”ni tuzdi. O‘zbek tazkirachiligining to‘ng‘ich asari bo‘lgan “Majolis un-nafois” o‘zbek tilida bir qator tazkira yoki majmua va bayozlarning vujudga kelishiga yo‘l ochdi va bir namuna bo‘lib xizmat qildi. Keyingi asrlarda o‘zbek va tojik tillarida bir qancha yangi tazkiralar vujudga keldi. Malehoning “Muzakkir ul-ashob” (“Suhbatdoshlar zikri”), Hasan Nisoriyning “Muzakkir ul-ahbob” (“Do‘stlar zikri”), Vozehning “Tuhfat ul-ahbob” (“Do‘stlarning tuhfasini”), Fazliyning “Majmuai shoiron” (“Shoirlar to‘plami”), Som Mirzoning “Tuhfayi Somiy”, Tabibiyning “Majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy” asarlari va boshqalar shular jumlasidandir. Tazkirani ilk marotaba fors tiliga tarjima qilgan Faxriy Hirotiy shu asarga o‘xshatib, 7 bobdan iborat she’riyat bilan

<sup>9</sup> Hayitmetov A. “Majolis-un-nafois”ning noyob bir nashri haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. –T.: Fan, 2004. №2.

<sup>10</sup> Боровков А.К. Маджалис ан-нафаис (собрание редкостных. Отделение литературы и языка, 1927. Том 6).



■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva* shugʻullangan 80 nafar podshoh, sulton va amirlar haqida maʼlumot beruvchi “Ravzat us-salotin” nomli tazkira yozgan va bunda “Majolis”ning oltinchi , yettinchi va sakkizinchi majlislari maʼlumotlaridan keng foydalangan. Shuningdek, XVIII asr oʻrtalarida tuzilgan muallifi nomaʼlum “Tazkirai shoiron”, Xalil taxallusli Ali Ibrohim Xalilxonning 3278 shoir haqida hikoya qiluvchi “Suhufi Ibrohim”, Sayid Muhammad Siddiq Hasanxon Bahodirning “Shami Anjuman”, Rizoqulixon Hidoyatning “Riyoz ul-orifin”, nomaʼlum tazkiranavisning “Xarobat” nomli ikki jildli antologiyalarida qayd qilinishicha, Navoiyning “Majolis un-nafois”idan asosiy manba sifatida foydalanilgan. Ushbu tazkiralardan maʼlum boʻladiki, Navoiy oʻz asari bilan asrlar davomida oʻzbek adabiyoti va madaniyati rivojiga zoʻr ijobiy taʼsir koʻrsatdi.



## **1.2. Tazkirada Navoiy adabiy-estetik qarashlari talqini**

Navoiy davrida juda ko‘p kishilar, garchi boshqa fan sohalari, davlat ishlari, turli turmush mashg‘ulotlari bilan shug‘ullansalar-da, shu qatori shoirlik ham qilganlar. Ana shunday shoirlar mahoratini Navoiy qanday baholaydi?

Navoiy, eng avvalo, ularning boshqa ish bilan band bo‘lib, yana ijod bilan shug‘ullanganliklarini samimiyat bilan qutlaydi.

Navoiyning ma‘lumot berishicha, Xoja Ismatulloh Movarounnahr buzurgzodalaridan. Lekin shoirlikka bo‘lgan ishtiyoqining ustunligi (“G‘oyat xush ta‘blilig‘i”)dan o‘zini she‘rg‘a mansub qilib devoni mashhur bo‘lgan. Demak, bu shoirdagi “G‘oyat xush ta‘blig‘i” uni barcha ishlari borligidan qat‘i nazar, she‘r aytishga, mahorat zohir qilishga undagan. Navoiy qarashidagi mahorat bunda ham birligida namoyon bo‘lgan.

Navoiyning ayrim adiblar ijodiga bergan baholari va so‘zlari orqali biz adibning qaysi mavzuda qalam tebratganini bilishimiz ham mumkin. Navoiy bunda faqat baholanayotgan adibning tanlagan mavzusini ko‘rsatibgina qolmasdan, shu mavzu bayoni orqali shoir mahoratini ham baholaydi. Shoirning bu qarashlari faqatgina “Majolis un-nafois”dagina emas, balki uning boshqa asarlarida ham bayon etiladi. Masalan, “Nasoyim-ul muhabbat” asarida Adib Ahmad haqida quyidagilarni yozadi. “Aning tili turk alfozi bila mavoiz va nasoihqqa go‘yo ermish”. Bunda, Navoiy birinchidan, Adib Ahmadni turk tilida ijod qilishini va bu tilda ravon asar yarata olishini ta‘kidlasa, ikkinchidan, ijodining mavzusi “Mavoiz va nasoih” (pand-nasihat, hikmat)dan iborat ekanligini ta‘kidlaydi. Navoiy yuqoridagi asarida Hakim Ota haqida gapirib “Hakim Ota va hikmat tili go‘yo bo‘libtur” deydi. Demak, har ikkala adibning ijodi va mahorati adabiyot va fanning konkret mavzulariga qaratilgan bo‘lgan. Lekin Navoiyning Hakim Ota va Adib Ahmadga bergan bahosiga uning o‘z dunyoqarashi, o‘sha davrning siyosiy ta‘siri mavjud. Navoiy bu adiblarning diniy ilmlar bilan shug‘ullanishlarini ta‘kidlash

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva* bilan birga, ulardagi ilmiy qobiliyat Olloh taolo tomonidan berilganligini ta'kidlaydi va ijodlariga yuksak nazar bilan qaraydi.

Navoiy davrida juda ko'p she'riy anjumanlar bo'lib, unda shoirlar orasida adabiy bahslar, munozaralar bo'ib o'tgan. Bu adabiy yig'inlar ko'pincha Navoiy uchun yosh, umuman adiblarning imtihondan o'tkazish vositasini ham o'tardi. Shak-shubhasiz bu yig'inlarda she'r bahsi, uning badiiy-poetik tomonlarining tahlili kun tartibida turgan birinchi masalalardan edi. Zero, Navoiy davrida biz tasavvur qilgan o'tkir adibning tanqidchilik, adabiyotga bo'lgan yuksak talablar bo'lmasa-da, poeziyaning analitik tahlili, qofiya, radif, she'riy san'atlarning ishlatilishi, tashbih, istiora, majoz kabi san'atlardan mohirona foydalana bilish, o'xshatmalarning naqadar hayotiyliigi haqidagi fikrlar ana shu she'riyat mahfilida ko'rib chiqilgan tahlil obyektiga aylangan. Navoiy uchun ushbu adabiy kechalar bayram edi, u birinchidan, o'sha davrda she'riyatning tomir urishi, rivojlanishi, uning osmonida paydo bo'layotgan yangi porloq yulduzlarni aniqlash imkonini ham berar edi. Shu qatori bu yig'inlarda shoirlikka da'vo qiluvchi, aslida iste'dod va mahoratda mutlaqo daragi bo'lmagan "shoir"lar ham qatnashib, o'zlarining "qobiliyatlari"ni namoyish etar edilar. Bu kabi holatlarni Navoiy biz o'rganayotgan tazkirada zo'r mahorat bilan qalamga olgan.

Asarda Navoiy qarashlarida yozuvchining mavqeyi, mahorati, shaxsiy xarakteri, axloqi bir-biri bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Uningcha, yozuvchining jamiyat uchun zararli xatti-harakati ijodiga ham ta'sir etmasdan qolmaydi. Masalan, Mavlono Abdulloning "she'ri el orasida bag'oyat mashhur" bo'lsa ham Navoiy uning "rivoji nomaqdurligi"ni ta'kidlaydi. Bunga asosiy sabab Mavono Abdulloning takabburligi, masnaviyda Nizomiy, Xusrav va hatto Jomiyni pisand qilmasligidadir. Navoiy Mavlono Abdulloning qator masnaviylari borligi, "Xamsa"ga tatabbu qilganligidan qat'i nazar uning ijodi va iste'dodini bu axloqsizligi tufayli "mundoq kishi she'ri ne istehqoq bila ta'rif qila olg'aybiz" deb baholaydi va hatto ijodi bahridan kechishni ham ma'qul biladi.

Yuqoridagi misolda Alisher Navoiyning estetik qarashlarida axloq va ijodning birligi, mutanosibligi o‘z aksini topgan. Ulug‘ adib har qanday shaxsning axloqiy pokligi, buyuklar, salaflar ijodiga ehtirom bilan qarashi, ijodda ham turmushdagidek kamtar bo‘lish hayotiy zarurat ekanligini uqtirishi bugungi avlod uchun ham ibratlidir.

Alisher Navoiyning yozuvchi axloqi bilan bog‘liq tomonlarining yana biri bu shaxsning boylikka va mulkka bo‘lgan munosabatida ko‘rinadi. Navoiyning o‘zi katta boylik egasi, davrning yirik feodali bo‘lsa ham kishi shaxsiyatida saxovat va ochiqqo‘llik, pul, boylikka berilmaslik xususiyatlariga tarafdorlik qilgan. Bu masalada Navoiy o‘zining ham shaxsiy namunaligi diqqatga loyiqdir. Xondamirning “Makorim-ul axloq”, Vosifiyning “Badoe-ul vaqoe” va boshqa juda ko‘p asarlarda ulug‘ adibning ochiqqo‘lligi, o‘z mablag‘idan hisobsiz binolar qurgani, qalam ahli, beva-bechoralarga moddiy yordam ko‘rsatgani haqida ko‘p ma’lumotlar keltirilgan. Navoiy yozadi: “Saxovat insoniyat bog‘ining borvar shajaridur, balki shu shajarning borvar samaridur...saxovatsiz kishi – yog‘insiz abri bahor va royihasisz mushki totor...”.

Navoiy fikricha, kishi boylik orttirishdan ko‘ra ilm egallagani ma’qul, zero ki ilm asosiy boylikdir. U buni o‘zining misolida quyidagicha ifodalaydi:

*Toki tushti mening qo‘limga jahon,  
Qilmadim yer tubida ganj nihon.  
Har ne ilmga tushti sarf ettim,  
Shoh-u darvesh dahr din kettim.*

Navoiyning ushbu asarida yozuvchi iste’dodining serqirraligi qatori turli kasb va mashg‘ulotlarning ular tomonidan egallaganligi, bu adiblarning she’r yaratish mehnatiga munosabati ham o‘z aksini ham topgan. Bunda adiblar o‘z kasblaridan tashqari, o‘sha davrning qator ilm va hunarlarini o‘zlashtirgan. Bular Husayn Voiz Koshifiy, Ustod Qulmuhammad, Mavlono Sharbatiy, Xoja Afzal, Muhammad Ali, Mavlono Binoiy, Mavlono Fazlulloh va boshqalardir.

Masalan, Navoiyning Mavlono Binoiy iste’dodining ko‘pqirraliligini ta’kidlashi ham diqqatga loyiq. Adabiyotda Navoiy Binoiyning o‘zaro

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva* bahslashuvlarini va ular o'rtasidagi arazomuz kayfiyat haqida anchagina fikrlar bildirilgan. Navoiy Binoiy shaxsiyatida davrining iste'dodli shaxslaridan birini ko'radi, uning ijodda ko'pqirraliligini obyektiv ko'rsatadi: "Mavlono Binoiy...bag'oyat qobiliyati bor. Avval tahsilg'a mashg'ul bo'ldi, andin ko'p rushdi bor erdi, bot tark qildi. Oz fursatda obodon bitidi. Andin so'ng ilmi musiqiyga mayl ko'rguzdi"<sup>11</sup>. Navoiyning Binoiyga bergan bu bahosida xolisona fikr, kamtarlik alomatini ko'rish mumkin.

Tazkirada Navoiy zamonasining yetuk adib va murabbiysi sifatida yozuvchi iste'dodini juda qadrladi, imkoni boricha adib kayfiyatida ko'tarinkilik baxsh etishga intildi. Salaf, zamonasidagi qomusiy bilimga ega bo'lgan adiblarning ijodiga alohida e'tibor bilan qaragan. Navoiy ulardagi bu qobiliyatni qutladi va boshqalarga ularni ibrat qilib ko'rsatdi.

Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari uning badiiy asarlarida, xususan, "Majolis un-nafois" tazkirasida ham o'z ifodasini topgan. Zotan, Navoiy birinchi o'zbek adabiyotshunos olimi, muarrix, tazkiranavisi hamdir. U adabiyot va san'atning tub nazariy asoslarini tahlil qilib, zamondoshlarini qiziqtirgan muammolarga javob qidiradi, adabiyotning ijtimoiy vazifasi eng muhim masalalardan biri sifatida ta'kidlaydi. Badiiy mahorat masalasi Navoiy qarashlarida asosli o'rinni egallaydi. Bunda u talabchan ustoz va xayrixoh, ham odil kitobxon sifatida ish ko'radi. Navoiyning estetik olami keng va rang-barang. Unda an'anaviy janrlar, badiiy san'atlar, vaznlar, qofiya va boshqalar xususida qiziqarli, ibratomuz fikrlar talaygina.

Shunisi ham muhimki, ulug' shoir faqat she'r va shoirlar haqidagina emas, balki san'at va san'atkorlar to'g'risida ham talay diqqatga molik fikrlar bayon etgan. Me'morlar, musiqachilar, naqqosh-musavvirlar, hunarmandlar Navoiyning ustoz va shogirdlari, do'stlari ko'p bo'lgan. Navoiy o'z asarlarida san'at ahlining iste'dodini qadrlab, ularning mahorati xususida to'lqinlanib gapiradi, san'atning inson kamoloti yo'lidagi muqaddas o'rnini ta'kidlab ko'rsatadi.

---

<sup>11</sup> Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. 13-том. Маҷолисун нафоис. –Тошкент: Фан, 1997.

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva*

Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari rus hamda o‘zbek olimlari tomonidan tadqiq qilingan. Biroq shoirning estetik olami, badiiy ijodi kabi cheksiz va bepoyondir.



## II BOB. “MAJOLIS UN-NAFOIS”DA NAVOIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI IN’IKOSI

### 2.1. Tazkirada Navoiyning ustozlarga munosabati

Alisher Navoiy ko‘plab buyuk insonlarni o‘ziga ustoz deb biladi. Garchi ular bilan bevosita aloqada bo‘lmasa-da, ularning ijodiy merosini o‘qib-o‘rganish orqali o‘zini shogird sanaydi. “Majolis un-nafois”ning birinchi majlisi aynan Amir Qosim Anvor zikri bilan boshlanishi ham uning ustozga bo‘lgan hurmat-e‘tiboridan dalolatdir. Asarda adibning ustozlari haqidagi fikrlarini berib o‘tamiz.

“Avvalgi majlis. Jamoati mahodim va azizlar zikridakim, bu faqir alarning sharif zamonining oxirida erdim va mulozamatlari sharafig‘a musharraf bo‘lmadim”. Birinchi majlisda Navoiy hazratlari o‘zidan oldin yashab ijod etgan, yoxud mulozamatlariga musharraf bo‘lmagan shoirlar haqida yozadi va ularni o‘ziga ustoz deb biladi. Bu majlisda 46 nafar shoir tilga olinadi. Navoiy “Majolis un-nafois”ning birinchi majlisini Qosim Anvor nomi bilan boshlaydi. Uning Qosimiy va Qosim taxalluslarida she‘rlar yozgani, davrning mashhur tasavvuf shayxlaridan bo‘lgani aytiladi. Qosim Anvor 1356-yil Tabrizning Sarob degan kentida tug‘ilgan, 1433-yil Jom viloyatining Xarjerd degan shaharchasida vafot etgan. Qosim Anvorning: Rindemu oshiqemu jahon so‘zu joma chok,

**Bo davlati g‘ami tu zi fikri jahon chi bok<sup>12</sup>.**

(Ya’ni, rindmiz (aysh-ishratdan o‘zini tiymagan), lekin g‘oyat ziyrak odam, oshiqmiz, jahonni o‘rtovchi yoqa vayronmiz, sening g‘aming turganda jahon fikridan ne foyda) baytini yod olgan.

Manbalarda Qosim Anvorning “Mezoni nufuz” (“Ta’sir o‘lchovi”) asari turkiyda yozilgan, shu tilda bitilgan tuyuqlari ham bor, deyiladi.

Shundan so‘ng Hazrat Navoiy Xoja Abdulvafo Xorazmiyga quyidagicha ta’rif beradi: “X o j a A b d u l v a f o y i X o r a z m i y (quddisa sirruhu) kibori avliyodindur. Xorazm xalqi g‘oyat malakiy sifotlig‘idin Xojani “yer farishtasi”

<sup>12</sup> Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. 13-том. Мажолисун нафоис. –Тошкент: Фан, 1997. –Б.4.

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva*  
derlar erdi va Xoja ulumi zohiriy va botiniyni takmil qilib erdi. Va tasavvufda yaxshi musannafoti bor va mashhurdurkim, ulumi g'ariba ham bilur erdi, ammo andin zohir, bo'lmas erdi, balki g'oyati tavajjuh va istig'roqdin parvo ham qilmas erdi. Advor va musiqiy ilmida dag'i mahorati bor erdikim, risolasidan ma'lum bo'lur. Xoja avsofini har kishi bitir bo'lsa, alohida bir kitob bitmak kerak, ma'lum emaskim, bir kitobda ham siqq'aymu yo yo'q. Bir ruboiysi bila ixtisor qiloli.

*Bad kardamu e'tizor badtar zi gunoh,  
Zero ki dar in hast se da'vii taboh,  
Da'vii vujudu da'vii quvvatu havl,  
Lohavla valo quvvata illo billoh<sup>13</sup>.*

Xoja ham Xorazmda olamdin o'tti va muborak marqadi ham Xorazmdadur".

"Majolis"dagi Abdulvafo Xorazmiyning zohiriy ilmlarda shogirdi, botiniy ilmlarda muridi, shoir Mavlono Husayn Xorazmiy haqidagi ma'lumotda uning Jaloliddin Rumi "Masnaviy"siga va "Qasidai Burda"ga xorazmiycha turkiy til bilan sharh yozgani aytiladi. Husayn Xorazmiyning "Maqsadi aqso" (Eng so'nggi maqsad) asari Mahmud Zamahshariyning arab maqollari haqidagi asari tarjimasi bo'lib, ko'p olimlar, jumladan, Xondamir bu tarjima asarni ta'rif qilgan.

Yana Alisher Navoiy avvalgi majlisda Mavlono Kotibiy haqida quyidagilarni aytib o'tgan: "M a v l o n o K o t i b i y – o'z zamonining benaziri erdi. Har nav she'rg'aki, mayl ko'rguzdi, anga maoniyi g'ariba ko'p yuzlandi, bataxis, qasoidda balki ixtirolar ham qildi va ko'p yaxshi keldi. Va masnaviylari ham misli "Tajnisot" va "Zul-bahrayn" va "Zul-qofiyatayn" va "Husn va ishq" va "Nosir va Mansur" va "Bahrom va Gulandom" bor. Ammo g'azaliyot va qasoid devoni mashhurroq va yaxshiroq voqe bo'lubdur. Oxiri umrida "Xamsa"ga tatabbu bunyod qildi va anda da'volar zohir qilibdur. Go'yo bu sababdin itmomig'a tavfiq topmadi. Bu faqirning xayolig'a andoq kelurkim, Mavlono Kotibiyda she'r saliqasi oncha bor ekandurkim, bizning Sulton Sohibqirondek suxandon podshoh anga murabbiy bo'lsa erdi va umri dag'i biror nima vafo qilsa erdi ko'p elning ko'nglin she'r aytmoqdin sovutqay erdi. Ammo tole'i za'fidin bu

<sup>13</sup> Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. 13-том. Мажолисун нафоис. –Тошкент: Фан, 1997. –Б.11.



■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva* mazkur bo‘lg‘an ikki davlatqa musharraf bo‘lmadi. Har taqdir bila insof uldurkim, aning asridin bu kungacha anga g‘olibi mahz she‘rning barcha uslubida kishi yo‘qtur. Aning yaxshi so‘zi ko‘pdur. Ammo g‘azaliyotida bu matlai yaxshi voqe‘ bo‘lubdurkim:

Zi chashmu dil badani xokiyam dar otashu ob ast,  
Ba chashm binu ba dil rahm kunki, kor xarob ast”<sup>14</sup>

(Ko‘z va dil tufayli tuproq badanim o‘t va suv ichidadir. Ko‘z bilan ko‘rgil va dil bilan rahm qilgil, ishim xarobdir.)

Kotibiy qalamiga 140 asar mansub deyiladi. Manbalarda shoirning “Si noma” - “Muhib va Mahbub” nomi bilan mashhur va “Kitobi dilraboyi” nomli irfoniy masalalarga bag‘ishlangan masnaviylari borligi e‘tirof etilgan.

Mavlono Yahyo Sebak – go‘zal fazilatlar egasi, badiiy san‘atlar va aruzda mohir bo‘lgan. “Shabistoni xayol”, “Ta‘biri xob” nomli asarlari bor. Navoiy aruz fanida uning shogirdiman, deb yozadi. Uning “Dahnoma” masnaviysi oshiqlar dasturi hisoblangan, deyiladi. Xoji Abulhasan turkdir, deydi Navoiy. Tolibi ilm, she‘r yozish bilan mashg‘ul.

Bayti:

Kelibtur ul gulu bir hafta turub boradur,  
Bu o‘t ko‘ngulga tushub jonni kuydurub boradur.  
Naimiy – turkiy nazmlarga moyil edi. Matla‘i:  
To adamdin bo‘ldi paydo munchkaim husnu jamol,  
Sen parivashdek yaratmabdur bashardin zuljalol<sup>15</sup>.

Amiriy turk erdi, turkcha yaxshi she‘rlar yozgan, “Dahnoma” asari ishqiy mavzudadir. “Devon”i va “Bang va chog‘ir” munozarasi bor. Navoiy shoir “Dahnoma”sidan quyidagi baytni keltiradi:

Ne yemakdin,ne uyqudin solib so‘z,  
Yemakdin to‘yub, uyqudin yumub ko‘z<sup>16</sup>.

<sup>14</sup>Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. 13-том. Мажолисун нафоис. –Тошкент: Фан, 1997.

<sup>15</sup>О‘sha asar. –В.21.

<sup>16</sup>Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. 13-том. Мажолисун нафоис. –Тошкент: Фан, 1997. –Б.22.

Ashraf – darveshsifat tabiatli bo‘lgan. “Xamsa” yaratishga kirishgan va tugatishga muvaffaq bo‘lgan shoir: “Minhoj ul-abror”, “Riyoz ul-oshiqayni”, “Shirin va Xusrav”, “Layli va Majnun”, “Haft avrang” va “Zafarnoma” ko‘rinadiki, shoir Nizomiy Ganjaviy izidan borib, oxirgi dostonini 2 qismdan iborat qilgan. “Majolis un-nafois”ning birinchi majlisidagi she‘rlar orasida samarqandlik Bisotiy, Sayyid Ali Hoshimiy, Muhammad Olim Badahshiylar, buxorolik Xayoliy haqida ma’lumotlar bor. Bobo Savdoiy, Muhammad Jomiy, Shohiy, Masihiy va boshqa shoirlar haqidagi ma’lumotlar ham g‘oyat maroqlidir.

Mavlono Alisher Navoiy avvalgi majlisga quyidagicha yakun yasaydi: “Bu valoyat osor guruh va bu fasohat shior anbuhlarning ruhlarinikim, xaloyiq ruhi alarning jonparvar nafaslaridin tozadur va ulus osoyishi alarning ruhbaxsh kalomlaridin beandoza. Haq subhonahu va taolo sahobi inoyatidin fayz yomg‘uri selobig‘a g‘ariq qilsun va mag‘firati soiqasidin ruh shu‘lasi anvorig‘a hariq etsun. Va alarning ruhoniyatidin Sultoni Sohibqiron humoyun tabig‘akim, fasohat bahrining samin gavharidur, nur va safolar bersun, va balog‘at bo‘rjining munir axtaridur, surur va ziyolar yetkursun”. Majlis oxiridagi quyidagi ruboiy esa shoirning yuksak mahoratidan baho beradi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi:

Yo rabki, bu shohkim ulus xonidur,  
Ta‘b ahli-yu zehn xayli sultonidur.  
Ne xon-u ne sultonki, jahon jonidur,  
Ber umr ila davlat, ulcha imkonidur<sup>17</sup>.

“Ikkinchi majlis. Ul jamoati azizlar zikridakim, faqir alardan ba‘zining mulozamatig‘a kichiklikda yetibmen va ba‘zining suhbatig‘a yigitliqda musharraf bo‘libmen va holo sana sitta va tis‘ina va samona mia tarixidakim, bu muxtasar bitiladur, alar bu fano domgohidin baqo oromgohiga boribdurlar”. Ikkinchi majlisda Mavlono yoshlik chog‘larida bo‘lsa ham ular bilan uchrashib, suhbatlashish baxtiga muyassar bo‘lgan ijodkorlar haqida yozadi. Bu majlisda

---

<sup>17</sup>O‘sha asar. –B.29.

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva* mazkur asar yozilguniga qadar vafot etgan 91 ta shoir, ulug‘ insonlar haqida xabar beriladi. Ulardan bir nechtalari xususida so‘z yuritmoqchimiz:

Sharofuddin Ali Yazdiy haqida: “Mavlononi... sohibkamolligi olam ahli qoshida musallamdir”, deydi Navoiy. Manbalarda u tarix, falsafa, ilmi nujum, adabiyot, tasavvuf bilimdoni deb ta’riflangan. Navoiy bolalik paytlari Taft shahrida Sharafuddin Ali Yazdiy bilan uchrashgan, alloma yosh Navoiyni duo qiladi. “Majolis”da olimning “Zafarnoma” nomli tarixiy kitobi, “Qasidayi Burda” hamda “Asmaulloh”ning sharhlari, “Hulal”, “Munozara”, “Muntahab” asarlari sanab o‘tiladi. “Zafarnoma” Shohruxning o‘g‘li Ibrohim Sultonga baxshida qilingan. “Asmaulloh” (Allohning ismlari) – Allohning 99 muborak ismi, ularning fazilatlarini haqidagi Shayx Muhammad Tobadgoniyning asari bo‘lib, Ali Yazdiy unga sharh yozgan. Sharafuddin Ali Yazdiy Taftda 1452-yil vafot etgan.

Xoja Fazlulloh Abullaysiy – Samarqandda yashagan bu ulug‘ alloma fiqh, arab tili va adabiyotini yaxshi bilgan. “Faqir ikki yil ularning qoshida saboq o‘qub erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, farzand der erdilar”, deb yozadi Navoiy.

Mavloni Muhammad Tobadgoniy – Xoji Abdulloh Ansoriyning fors va arab tilida bitilgan “Manozil us-soyirin” asariga sharh yozgan. Sa’j (nassr) san’atining yuksak namunasi bo‘lgan bu asar didaktik dostonlar yaratilishida zamin bo‘la olishi bilan ham badiiy qiymatga ega.

Shayx Kamol Turbatiy – Ko‘p diqqatlik va tobe’lik kishi erdi (ya’ni, nozik ma’noli she’rlari bor, iste’dodli shoir - S.G‘.). Xofiz g‘azallariga ko‘p muxammaslar yozgan” shoirdir. Navoiy Mashhadda yashagan paytlari qattiq xastalanganida Shayx Kamol Turbatiy undan xabar olgani, u bilan tez-tez yaxshi suhbatlashib turgani haqida bayon etadi.

Darvesh Mansur – sabzavorlik shoir, uning aruz, badiiy san’atlar haqidagi asarlari bor. “Faqir aruzni Darvesh qoshida o‘qubmen, Darvesh qirq bilan ellik yoshinda olamdan o‘tdi”, deya e’tirof etadi Navoiy.

Astrabodlik Xoja Hasan Xizrshoh – nastaliq xatini yaxshi yozgan bu shoir “Layli va Majnun” qabilida “Zayd va Zaynab” nomli masnaviy bitgani, yana bir shoir

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva*  
Xoja Mas'ud Qumiy Husayn Boyqaro tarixini, "Yusuf va Zulayho", "Shams va Qamar", "Tig' va qalam" nomida doston hamda munozara yozgani haqida ma'lumotlar berilgan.

Xoja Yusuf Burxon – mashhur shayx Ahmadi Jomiy avlodidan, tasavvuf bilimdoni bo'lgan mazkur shoirni Navoiy "musiqiy ilmni ham yaxshi bilur erdi va faqir musiqiy fanida aning shogirdimen. Ko'proq o'z she'rig'a musiqiy bog'lar erdi. "Isfahon" amalini yaratgan", deb yozadi.

Mavlono Javhariy – samarqandlik shoir, "Siyar un-nabiy" (Payg'ambar xislatlari) nomli asari bor, aruzni bag'oyat chuqur tushungan shoir. Yetti qalamda ham xatni go'zal yozgan. U ilmi musiqiy va advor (musiqa nazariyasi) va boshqa sohalarni puxta bilgan deb ta'riflanadi.

Andijonlik shoirlar Mavlono Safoiy va Yusuf Bade'iylar bilan Navoiy Samarqandda ekanida uchrashgan. Yusuf Bade'iy keyin Hirotga kelgan, yaxshi suhbat bor, aruzni yaxshi bilar edi, deydi Navoiy.

Sayyid Hasan Ardasher haqidagi so'zni Navoiy "bu faqirg'a ota mahobasida erdi", deb boshlaydi. Tasavvufni yaxshi bilgan, har ikki tilda nazm aytgan zot edi. Navoiy bu ulug' zot bilan uning hayoti so'nggigacha qalin do'st, maslakdosh bo'lgan. U Navoiyning hayoti, ijodiy kamolotida muhim o'rin tutgan. Shoir Samarqanddan she'riy maktubi – "Hasbi hol"ni Sayyid Hasanga yo'llagan. Unga atab manoqib (yaxshi va go'zal sifat, xislat, fazilatlar madh etilgan – S.G'.) tarzida "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" asarini yozgan. Vafot etganida 112 misradan iborat marsiya bag'ishlagan. Yuqorida yodga olingan shoirlar kitob yozgan ulug'lardir. Alohida asar yozishmagan bo'lsa-da, she'riyatga ixlos qo'ygan shoirlar haqida ham "Majolis un-nafois"da so'z yuritilganligini aytish joiz.

Shu o'rinda ikkinchi majlisda zikr etilgan yana bir necha turkigo'y shoirlar nomini keltirib o'tishni joiz deb topdik.

Mavlono Tarxoniy – andxudlik shoir, Jomiy she'rlariga javoblar yozgan. Navoiy: "Ba'zi mahodim Samarqandda bandg'a tushkanda bu turkcha she'rni aytqandur", deydi.

Darvesh Nozukiyy – sipohiylikni tark etib, Mashhadda go‘shanishin bo‘lgan, ikki tilda she‘rlar yozgan. Turkiy bayti:

Birovkim chiqti eldin ogoh uldur,  
Gadolikdin kim ogohdur shah uldur<sup>18</sup>.

Mavlono Lutfiy – Navoiy Lutfiyni “Malik ul-kalom”, deb ta’riflaydi. “Forsiyda va turkiyda yozadi, ammo turkiyda shuhrati ko‘proq erdi. Turkcha devoni mashhurdur”. Navoiy Lutfiy “Zafarnoma”ni tarjima qilgani, forsiyda qasidalarni ustozlarga javob tarzida bitganini ta’kidlaydi. “99 yil yashadi va oxir umrida “oftob” radifli she‘r aytdikim, zamon shuarosi tatabbu qildilar”. 1997-yilda Anqarada shoirning Gunoy Qarag‘och nashr qilgan devonidan olingan bizda e’lon qilinmagan “Hamd”, “Na’t”, 4 qasidasi, 39 g‘azal, 17 ruboiysi, 25 tuyuq, 24 fardi “Lutfiy: Manzumalar” nomida o‘zbek kitobxonlariga ham yetkazilganligi xayrli bo‘ldi.

Yaqiniy – tabiatida bo‘lgan “beadabona so‘zlardan tavba qilib, oxir damida to‘g‘ri yo‘lga o‘tgan”, deb yozadi Navoiy u haqda. Shoirning “O‘q va Yoy” munozarasi bor.

Atoiy – turkigo‘y shoir, xushxulq bo‘lgan, she‘rlari turklar orasida ko‘p shuhrat tutgani aytilib, uning quyidagi bayti keltiriladi:

Ul sanamki, suv yaqosinda paridek o‘lturur,  
G‘oyati nozukligidin suv bila yutsa bo‘lur<sup>19</sup>.

Muqimiy – hirotlik, darvesh mashrab shoir. Tasavvuf istilohlarini yaxshi bilgan. Turkiy tarje’bandidan bayt keltirilgan:

Sensen asli vujudi har mavjud,  
Sendin o‘zga vujudda ne vujud.

Kamoliy – Balxda yashagan, turkigo‘y shoir, she‘rlari shuhratdan xoli bo‘lmagan. Matla’i:

Irning qulidur nayshakar, ey jon beli bog‘liq,  
Gul dog‘i yuzung bandasidur to‘ni yamog‘liq<sup>20</sup>.

<sup>18</sup>Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. 13-том. Мажолисун нафоис. –Тошкент: Фан, 1997. –Б.55.

<sup>19</sup>О‘sha asar. –Б.63.

Sakkokiy – samarqandliklar bu shoirga g‘oyatda ixlosmand bo‘lishgan. Navoiy Samarqandda yashagan paytida uning she‘rlarini so‘ratadi. Sakkokiyning Xoja Muhammad Tarso, Xalil Sulton, Ulug‘bek Mirzo, Arslon Xoja Tarxonlarga bag‘ishlangan qasidalari bor.

Mirzo Xoji So‘g‘diy – samarqandlik, Navoiy bu shoir ba‘zida ajoyib ma‘noli she‘rlar yozar, lekin so‘zlarni rangli qilib bitar edi, deydi. Matla‘i:

O‘xshatti qomatingga sanavbarni bog‘bon,  
Bechora bilmas ermish alifdin tayog‘ni. (MN.64)

Navoiyning tog‘asi Mir Said Kobuliy ikki tilda she‘r yozgan, turkiyga ko‘proq moyil bo‘lgan. Navoiy undan bir tuyuq keltiradi:

Ey muhiblar, yetsangiz gar yoza siz,  
Gul adoqinda xumore yozasiz.  
Gar men o‘lsam, turbatimning toshig‘a  
“Kushtai bir sho‘x erur” deb yozasiz. (MN.66)

Navoiyning yana bir tog‘asi Muhammad Ali “G‘aribiy” taxallusida she‘rlar bitgan. Juda mashhur cholg‘uchi bo‘lgan. Musiqa ilmini puxta bilgan. Husayn Boyqaroning unga iltifoti, inoyatlari o‘zgalardan ko‘proq erdi, deydi Navoiy. Tazkiraning ikkinchi majlisida Shosh, Samarqand, Turbat, Xorazmda yashagan ko‘pgina shoirlar haqida ma‘lumotlar bor. Ularning she‘rlari o‘sha davr adabiy jarayoni, janrlar ravnaqi, ma‘naviyat masalalari haqida muxtasar bo‘lsa-da tasavvur uyg‘otadi. Ikkinchi majlis esa quyidagicha yakun topadi:

“Bu latofat oyin aizzag‘a va bu balog‘at tazyin ajillag‘akim, tablari natijasidin olam ahli xushhol va zehnlari bodasidin xotirlari sog‘ari molomoldur, tengri taolo alarg‘a bog‘i rizvoni maqom qilsun, ravzai jinonda orom bersun va Sulton sohibqiron ro‘zgorig‘a ruhlaridin madad va fayzi beaded yetkursun.

*Shohekim, erur sipehr miqdorig‘i,  
Tufroq aro xasm bois-u xorlig‘i,*

---

<sup>20</sup>Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. 13-том. Мажолисун нафоис. –Тошкент: Фан, 1997. –Б.63.

*Topsun bular arvohi madadkorlig'i,*

*Har ishtaki bo'lsa tengrining yorlig'i". (MN.69)*

“Uchinchi majlis. Alar zikridakim, holo zamon sahoyifida maoniy abkori alarning daqiq tablari mullaboflig‘idin nazm libosi kiyadur va nazm libosi alarning amiq zehnlari muyshigoflig‘idin san‘at va salosat naqsh va nigori topadurkim, ba‘zining mulozamatig‘a musharraf va sarafroz va ba‘zining musohabati bila xushnud va bahramanddurimiz”. Bu majlis muallifning o‘zi bilan bevosita shaxsiy munosabatda bo‘lgan, birgalikda ijod etgan shoirlar, chunonchi Navoiyning do‘sti va ustoz Abdurahmon Jomiy va boshqalarga bag‘ishlanadi. Bu bo‘limda hammasi bo‘lib 174 ta adib haqida ma‘lumot beriladi. Ushbu ijodkorlarning ayrimlari bilan tanishtirib o‘tamiz:

“Donish-u fazl gavharining koni” Abdurahmon Jomiy bilan “Majolis”ning uchinchi majlisi boshlanadi. Navoiy o‘z fikrlarini ta‘rif va tahsinlarda bayon etadi. Asarlari nomini keltirishning o‘zi bu vasflardan oshadi” – deydi va duo bilan yakunlaydi. Navoiyning piri, ustoz bo‘lgan Jomiy bilan do‘stlik rishtalari g‘oyat mustahkam bo‘lgan. Ular ijodiy hamkorlikka katta e‘tibor bilan qaraganlar. Bu haqda Navoiyning “Hamsat ul-mutahayyirin” asarida g‘oyat muhim ma‘lumotlar berilgan. 1492-yil Jomiy vafot etadi. Bu Navoiy uchun og‘ir yo‘qotish edi. 1492–1494-yillarda saroyda Majiduddin, Nizomulmulklarning fitna-fujurlari avjiga chiqqan, Navoiyga Jomiydek do‘st, sirdosh va maslahatgo‘y yetishmaganidan ul zotning iztirobi cheksiz edi. Navoiyning Jomiy haqidagi fikrlari “Hamsat ul-mutahayyirin” asarida va dostonlarida berilgan alohida madhiyalar hamda uning vafotiga yozilgan marsiyasida qalamga olingan.

Amir Shayxim Suhayliy – iste‘dodi va zehni yuksak, axloqi go‘zal, deya ta‘riflangan. U Husayn Boyqaro davrida saltanat ishlarida maslahatchilik qilgan. Suhayliyning “Iydiya” qasidasidan matla‘ keltiriladi:

*Shukr, ey dilki, digar bor ba sad zebu jamol,*

*Gardani shohidi iyd ast darog‘ushi hilol. (MN.72)*

(ya'ni: shukr qil, ey ko'ngul, ya'ni yuz bezak va go'zallik bilan bayram go'zalining gardani yangi oy og'ushiga kirdi.) Yana boshqa she'rlaridan ham namunalar berilgan.

Davlatshoh Suxayliyning har ikki tildagi go'zal she'rlaridan keltirgan. Uning turkiy g'azalidagi ushbu misralar shoir iqtidorini namoyon qilib turibdi:

*O'zmasun deb rishtai jonim, ko'nglumni bog'lamang.*

*Kim, necha tor o'lsa nozuk etmas oning quvvati.*

*So'rsalar ahhob ko'nglum holatin ayt, ey sabo,*

*Kim, bir otashnok yuz birla tutoshmish suhbat.*

Suhayliy Kamoliddin Husayn Koshifiyning "Kalila va Dimna" asarini "Anvori Suhayliy" nomida nazmda tarjima qilgan.

Mavlono Binoiy – Navoiy u Hirotda tug'ilgan, tahlilga jiddiy mashg'ul bo'lgan, xatga ishq paydo qildi, oz fursatda juda yaxshi yoza boshladi, advor-musiqiy ilmiga berildi, risola ham yozdi, deb ta'riflagan. "Ammo mu'jib (kibrli, manmanlik - S. G'.) va mutasavvir (tasavvurga berilgan - S.G'.)lig'idin Hirotda el ko'nlig'a maqbul bo'lmadi ... el sha'ni tashne'idin (ta'na va malomat - S.G'.) Hirotda yashay olmadi ... ammo chun yigit durur qobil va ko'p g'urbat va shikastliklar tortdi, umid ulkim nafsiga ham shikast va tavoze' yetmish bo'lg'ay" - deb yozadi va forsiyda bir baytni keltiradi. "Majolis"ni forsiyga ikkinchi tarjimoni Muhammad Qazviniy Binoiyning Navoiyga hazil-mutoyibalari, qochirimlarini bayon etadi. Binoiyning "Bog'i Eron", "Bahrom va Behruz" nomli va Shayboniyxon haqida ham masnaviylari bor.

Mavlono Abdulloh – Jomiyga qarindosh edi, lekin ma'no jihatidan g'oyat yiroq edi, deb yozadi. "Xamsa"dan "Layli va Majnun", "Xusrav va Shirin", "Haft paykar" va "Zafarnoma" dostonlarini Abdulloh 1490–91-yillarda yozgan.

Mavlono Hiloliy – Navoiy bu shoirni turk elidandur, hofizasi yaxshidur, tabi (iste'dodi - S.G'.) hofizasicha bor, deb ta'rif qiladi va forsiy matla'ini keltiradi.

"Majolis"ni forsiyga ilk bor tarjima qilgan Faxriy Hirotiy "Hazrat Navoiyning" "sabaq uqumoq niyati-tavfiq topgay" degan duosi ijobat bo'ldi, shoir she'ring



■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva* hamma uslubida yetuk mahorat paydo qildi, zamona nodiriga aylandi. “Layli va Majnun”, “Shoh va Darvesh”, “Sifot ul-oshiqin” masnaviylarini yozdi” deb qayd etadi. Xondamir Hiloliy nomi Nuriddin edi, deydi va ... zamon shoirlarining sarasi, so‘z ustalarining tayanchi, qasida, masnaviylarini sanab o‘tadi va bir matla’, bir ruboiysini keltiradi. Bayt:

*Chunon az po fikand iliruzam on raftoru qomat ham,  
Ki, fardo bar namexizam, balki fardoyi qiyomat ham.*

(ya’ni: bugun ul xushraftor va xushqanot meni shunchalik oyoqdan qoldirdi, ertaga, balki qiyomat ertasiga ham o‘rnimdan tura olmasman.)

“Majolis un-nafois”ning bu uchinchi majlisida hunarmandlar, xattotlar ham zikr etilgan. Xususan, Moniy Kosagar chinni yasagan va inisi uni naqshlagani aytilib, Navoiy “Chin va Xitoda andoq qila olmaslar” deb maqtaydi.

Asiliy – nasta’liq xatini yaxshi bituvchi, halvogar Ofatiy, g‘azlfurush (yigirilgan ip, kalava sotuvchi) Zuloliy, (olimlar matnda bu so‘zni g‘azalfurush deb o‘qib, Hirotda XV asrda g‘azalfurushlar bo‘lgan, ularning g‘azallar sotiladigan do‘konlari bo‘lgan, deb yozganlar - S.G‘. Masalan: Y.E. Bertels “g‘azalfurush” deb o‘qib, yozgan edi: “На базарах Герата существовали книжные лавки, где знатоки литературы могли найти любое новое произведение ... Существовали особые торговцы газелями (g‘azalfurush), которым можно было заказать копию лирического стихотворения ...”), kuftapaz (taom turi) Hoshimiy, savdogar Osiliy, kitob muqovasozlari Fig‘oniy, naqqosh Fazliy, tabib Darvesh Ali, kordgar (pichoqchi) Ustod Muhammad Ubahiy, munajjim Kavkabiy, Sulton Mahmud kabilar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Uchinchi majlisda 29 nafar mashhadlik shoirlar, 9 nafar astrobodlik va Marv, Nishopurdan bo‘lgan shoirlar, ayniqsa, yosh ilmi toliblarga e’tibor qilingan.

Turkigo‘y shoirlardan Mavlono Gadoiy sohibi devon haqida bizda 1962-yil ilk bor maqola e’lon qilinib, uning she’rlaridan kichik bir majmua nashr qilingan edi. 1973-yilda E. Ahmadxo‘jayev Gadoyining Parijda saqlanayotgan devonini so‘zboshi bilan e’lon qilgan.

Uchinchi majlisni Navoiy hazratlari quyidagicha yakunlaydi:

“Bu hazratkim, bu majlis ahlining sadrinishidurlar sahobi maoniylari gavharrez va bu jamoatkim, ul hazrat xirmanani maoniysining xushachinidurlar, gulshani tab’lari gulafshon va sumanbez, sarxaylg’a vusuli ilohi yetsun va xaylg’a sharafi saodat va mag’firati nomutanohi kasb etsun. Va Sultoni sohibqironkim, ul hazratning nukot va maorifining daqoyiqi alfozini va haqoyiqi maoniysini hech donishvarlardin yaxshiroq bilmadi va hech ahli ta’b alarning ushri ashirini fahm qilmadikim, majlisda nazm tariqida hamroz erdilar va nasr uslubida puktapardoz. Ul hazrat ruhoniyyatidin alarg’a fayzi beg’oyat va imdodi benihoyat yetsun va bu faqir hamkim, bu hazratning bandai dargohi va ul hazratning xoki rohimen mahrum bo’lmasun”.

*Chun bor edilar bu hazrat-u ul hazrat,*

*Kim, ul hazrat haq sari qildi rihlat.*

*Bu hazrat ko’p umr ila topsun davlat,*

*Men bandag’a davlatida kunji uzlat. (117)*

Bu hazratkim...” Abdurahmon Jomiy nazarda tutiladi. Ruboiydagi “bu hazrat” Sulton Husayn Boyqaroni, “ul hazrat” esa Jomiyni anglatadi. “...ul hazrat haq sari qildi rihlat” misrasidan Jomiyning vafot etgani anglashiladi. Ana shu uchinchi majlis avvalida esa Jomiyga hali hayot shoir sifatida ta’rif beriladi. Gap shundaki, Navoiy “Majolis un-nafois”ni to’ldirib, uning har majlisi alohida xotimalar yozgan va asarning ikkinchi tahririni yaratgan. Bu tahrirni shoir 1498-yilda amalga oshirgan. Binobarin, bu vaqtda Jomiy hayotdan ko’z yumgan edi.

Navoiy do’stlikning eng yuksak namunalarini o’zining ustozlari va yaqin do’stlari Jomiy misolida ko’rdi. Jomiyning do’stlikka munosabati yozuvchilar, saltanat ahli va umuman barcha kishilar uchun ibrat namunasi bo’lgan:

“Bu nav sohib davlati buzurgvor va bu yanglig’ sohibkamoli nubuvvat kirdor bu xoksori parishon ro’zgorni azim iltifotlari bila sarbaland va g’arib navozishlar bila arjmand qilib, abnoyi jinsim aro sarfarozi, balki jinsi bashardin mumtoz qilur erdilar”.

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva*

Ana shu “sarfarozi” va “mumtozlik” bu buyuklarni ijodda ham birlashtirdi.



## 2.2. “Majolis un-nafois”da yoshlar kamoloti va shogird tarbiyasi zikri

Navoiyning juda ko‘p adiblarni o‘z tarbiyasiga olib, ularga bilim, iqtisodiy madad berib kamolotga yetkazgani ma’lum. Bularni Xondamir, Darveshbek, Hojimuhammad, Mirzobek, Vosifiy, Hiloliy, Qulmuhammad Udiy, Sayfiy va boshqalarning misolida ko‘rishimiz mumkin. Lekin Navoiyning kishilarda yuksak insoniy xislatlarni singdirish, ilm cho‘qqilarini egallashlarida qilgan intilishi hamma vaqt ham amalga oshavermagan. Ayrim shaxslardagi yakkashlik, yomon xulqli xususiyat Navoiydek murabbiy, olim kishining intilishlarini ham zoye ketkazgan. Ana shunday kishilardan biri Mavlono Jannatiydir. “Mavlono Jannatiy – tabi yomon emas, ammo aqli ham yo‘qdur va toleyi ham. Muddate podshoh mulozimi erdi, falokat anga base mustavli bo‘ldi, faqir oni yig‘ishturdum... hech yerga yetkura olmadim. Holo dag‘i ul navki bor erdi, sargardon yurur”.

Mazkur tazkirada Navoiyning shogirdlari haqidagi fikrlariga to‘xtalamiz.

Navoiy Mirxondan so‘ng Xondamir haqida “Mirxondning farzandidur va salohiyatli yigitdur. Tarix fanida mahorati bor”, deb yozadi va bir muammosini keltiradi. Taniqli olimlar Xondamir Mirxondning o‘g‘li, jiyani “Majolis”ni forsiyga ikkinchi tarjimoni Xoharzodasi deb yozganlar. Xondamir Navoiy tarbiyasida olim bo‘lib yetishgan, uning kitobdori uxdasini bajargan. Navoiy vafotidan so‘ng “Makorim ul-axloq” – shoir hayoti, ijodi, faoliyati, oxirgi damlari haqidagi kitobini yozgan. Bu asarning Britaniya muzeyida saqlanayotgan yagona nusxasidan 1938-yil faksimili olinib, M. Faxriddinov va P. Shamsiyevlar tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi. I. Sultonning so‘zboshisi bilan uchinchi nashri 1967-yilda chiqqan. Xondamirni yuqorida yodga olganimiz “Habib us-siyar” yana “Xulosat ul-axbor”, “Dastur ul-vuzaro”, “Nomai nomiy” asarlari ma’lum. Xondamir hayoti va ijodi haqida D. Yusupova alohida tadqiqot nashr qilgan.

Mavlono Sayfiy – buxorolik, shoir, adabiyotshunos (vafoti: 1503). Buxoro va Hirotda tahsil olgan. Uning ikki devoni va “Risolai aruz”, “Risolai musiqiy”

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva* asarlari bor. Birinchi risolasida she'r va shoirlik, aruz qoidalari, bahr va doiralari sodda va ravon til hamda uslubda bayon etilgan. Xondamir Sayfiy 3 yil shahzoda Boysung'ur Mirzo xizmatida bo'lgani, uning vafotidan so'ng esa Buxoroga qaytgani haqida yozadi.

Mirzobek – insoniyat va xushaxloqlikda Xuroson va Samarqandda yagona bo'lgan bu shoir yosh vafot etgani aytiladi. Xondamir “Makorim ul-axloq” asarida Mirzobekning otasi Amir Sulton Hasan ekanligi va ular “Ko'p ichish orqasida o'lib ketgan”ini yozgan.

Mir Haydar – Navoiyning jiyani, shoir. Xalq orasida “Haydar telba” nomi bilan mashhur. Navoiy Astrobod hokimi ekanligida Haydarni ba'zi rasmiy topshiriqlar bilan Hirotda yuboradi. Norasmiy bir ziyofatda Navoiyga suiqasd qilingani, unga oshpaz zahar qo'shilgan taom bermoqchi bo'lganini xabar qiladi. Husayn Boyqaro bundan voqif bo'lgach, Navoiyga maktub yo'llaydi. Navoiy esa Haydarning aytganlarini butunlay rad etadi. Shoir maktublaridan birida shoh nazdida Haydar gunohidan o'tganligi uchun minnatdorlik izhor qiladi. Lekin 1498-yilda Haydar Sabuhiy qatl etiladi. Bu Navoiy uchun katta musibat bo'ladi, chunki Haydarni shoir o'zi tarbiyalagan bo'lib, uni farzandi o'rnida ko'rar edi.

Muhammad Solih (tug'. 1455, Xorazm - vaf. 1535, Buxoro) – shoir, tarixchi, davlat arbobi. Xorazm hokimi Nur Saidbek oilasida tug'ilgan. Bobosi Amir Shoh Malik – temuriylar, jumladan, Ulug'bek Mirzo xizmatida bo'lgan. Muhammad Solih dastlab Xorazmda, so'ng Hirotda tahsil olgan. Husayn Boyqaro saroyida, keyinchalik Shayboniyxon xizmatida bo'lgan. 1500-yillarda Buxoro dorug'asi hokimi qilib tayinlangan. Muhammad Solih “Shayboniynoma” nomli tarixiy doston yaratgan. Uning yagona qo'lyozma nusxasi Venada saqlanadi. Bobur Muhammad Solih haqida “Sharir (yaramas) va zolim ta'b va berahm kishi erdi”, deb yozadi.

Abduqahhor – Navoiy bu shoirning muammo fanig'a qobiliyati bor, deb ta'riflaydi. Xondamir “Habib us-siyar”da ikki joyda Mavlono Sharafiddin

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva*  
Abduqahhor degan shoir Abulqosim Bobur hamda qozi Qutbiddin Muhammadlar vafotiga tushirgan ikki ta'rixini keltiradi.

Qozi Iso — Muhammad Qazviniy Navoiy so'zlariga ilova qilib, "Qozi Iso Sulton Ya'qubxonni hamisha adolatga undar edi. Adolat bilan ko'pchilikning qalbida hurmat imoratini qurgan edi", deb yozadi va Sulton Ya'qubning hamshirasini (sutdosh singlisini) yaxshi ko'rib qolgani, Sulton ularning qovushishi yo'lida uringani, lekin turklarga xos johilligi ustun kelib, bu ishdan qaytganini ham bayon etadi. Shoir she'riyatidan yana 6 bayt keltiradi.

Mavlono Ahliy – Muhammad Ahliy Sheroziy (tug'.1455 - vaf. 1435-36, Sheroz) shoir. "Sham va parvona", "Sehriyi halal" nomli dostonlar yaratgan. Yosh hind ayolining eri vafotidan keyin o'zini gulxanga tashlagani hikoya qilingan har ikkala doston ham she'riy san'atlarni ishlatish jihatidan g'oyat murakkabdir. Salmon Sovajiyning "Qasidai masnu"si yo'lida Navoiyga, Ya'qubbekka, uning ukasi Yusufbekka hamda Ismoil Safaviyga bag'ishlagan qasidalari ham nihoyatda murakkab uslubda bitilgan. Y.E. Bertels Ahliy Sheroziyning ham chapdan o'ngga, ham yuqoridan pastga qarab o'qish mumkin bo'lgan bir ruboiysini keltiradi. Mana shunday mazmunga ko'ra san'atlar istifodasiga o'ta berilishlik o'sha davr adabiy jarayoniga xos bo'lgan.

"Sakkizinchi majlis"da Sulton sohibqironning latif tabi natoyijining zebolari, husn va jamoli zikrida va sharif zehni xasoisining ra'nolari ganj va daloli sharhidakim, har qaysi zamon safhasi bo'stonida ranginlig' va ravonlig'din gul'uzoredur sarvqad va har birisi davron arsasi gulistonida ravonlig' va ranglikdin sarvi ozodedur, ulxad". Bu majlis san'atkorning bolalikdan do'sti Sulton Husayn Boyqaro ijodiga bag'ishlangandir. Navoiy bolalikdagi do'sti, bir umrlik ham ijodda, ham siyosiy hayotda hamrohi Husayn Boyqaroni quyidagicha ta'riflaydi: "Saltanat bahrining durri yaktosi va xilofat sipehrining xurshedi jahonorosi, saxovat havosining abri guharbori va shijoat beshasining huzabr shikori, adolat chamanining sarvi sarbalandi va muruvvat ma'danining gavhari arjumandi, ko'shish razmgohining Rustami dostoni va baxshish bazmgohining Hotami

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva*  
zamani, fasohat ilmining nukta birla sehrsozi va balog‘at jahonining diqqat bila  
mo‘jiza pardozi - Sulton us-salotin Abdulg‘ozi Sulton Husayn Bahodirxon –

Kim, mulki davomi to qiyomat bo‘lsun,  
Zotig‘a bu mulk uzra iqomat bo‘lsun,

Adl ichra tariyqi istiqomat bo‘lsun,  
Olam ahli uchun salomat bo‘lsun”. (MN.178)

“Majolis” so‘ngidagi bu “Xilvat” deb berilmish ikki lavha: Husayn Boyqaro huzurida o‘tadigan adabiy anjumanlar (Navoiy “Oliy majlis” deydi) haqida, ularda yangi she‘rlar, badiiyat masalalari muhokama qilinishi haqida tasavvur yaratib beradi. Birinchi lavhada Navoiy Xusrav Dehlaviyning hindcha she‘rlaridagi bir ma‘no yomg‘ir rishtasining nozik yorga madad bo‘lganligi haqidagi Lutfiydan eshitgan hikoyat va unga e‘tiroz bildirgan Husayn Boyqaro mana bu bayt esa e‘tiroz uyg‘otmaydi, deb bir baytni keltiradi. Bu bayt Husayn Boyqaro devonidan topilmadi. Uning Navoiy ilk devonidagi bir g‘azal tarkibida mavjudligiga bizning e‘tiborimizni prof. H. Ne‘matov tortdi. Faqat “Majolis”da “devorg‘a” so‘zi devonda “devorda” tarzida yozilgan. Ikkinchi lavhada esa hisorlik yosh shoir Qabuliy g‘azali bilan bog‘liq bo‘lib, shoir she‘rida chiqmay qolgan bir baytni Navoiy yozib bergani va Husayn Boyqaro bu holni darhol payqagani haqida so‘z boradi. Bu lavha Husayn Boyqaro Navoiy she‘riy uslubini naqadar puxta bilganligi, shuningdek, yosh iste‘dodlarga marhamatli bo‘lganligidan dalolat beradi. Shuningdek, Husayn Boyqaro ham bu holni ko‘ra bila turib, hammaning oldida bu sirni oshkor etmay, yosh shoir Qabuliyga va Navoiyga marhamat qiladi. Bu holat bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir. Navoiyning o‘z shogirdlarini qo‘llab-quvvatlashi, ularning ijodiy barkamolligi rivoji yo‘lida o‘zining yordamini ayamasi hozirgi davr ta‘lim tizimida, umuman olganda asrlar osha avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ustoz-shogird an‘anasining takomili sifatida ahamiyatga molikdir.

Tazkirani tarkibiy tuzilishini o'rganish jarayonida bir qator qiziqarli ma'lumotlarga duch keldik. "Majolis un-nafois"da Navoiy hazratlari o'zbek ayol shoiralari haqida ham ma'lumot bergan ekanlar. Masalan: Tazkiraning avvalgi majlisida Navoiy Mavlono Sulaymoniy haqida ma'lumot berganida, uning ayoli shoira Mehri haqida ham aytib o'tadi. Mehri – XV asrning birinchi yarmida Hirotda yashagan shoira. Mehrining eri Xoja Abdulaziz Shohrux Mirzoning saroy tabibi bo'lgan, Mehri sofdil, ravshanfikir, iste'dodli, shirinsuxan va hozirjavob bo'lgani uchun malika Gavharshodbegimning yaqin suhbatdoshi – nadimasi ekan. Tazkiralarda qariyb bir ovozdan Mehrining nihoyatda go'zal bo'lganligi qayd qilinadi. Shoiraning bizgacha yetib kelgan she'rlari u yoki bu hayotiy voqealar munosabati bilan badiyona aytilgandir. Mehri fitna-fujurlar bois birmuncha muddat Shohrux tomonidan zindonband qilinadi. Lekin zindonda turib yaratgan isyonkorona she'rlari uni xalos bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Navoiy keltirgan ikki bayt tazkiralarda berilishicha, Mehri qalamiga mansubdir. Shoira she'rlarida dadil aytilgan fikrlar, aniq his-tuyg'ular, alamli armonlar go'zal badiiy obraz va vositalarda bayon etiladi:

Tarj: Mayning xaromligi sababini madrasa ahlidan so'ray dedim, kimning eshigini qoqsam, (undagi kishi) hushsiz va uchib yotgan edi.

"Va mashhur mundoqdurkim, bu ab'yot Mavlono Hakim tabibning xotuni Mehriningdur". Bu bayt Hofiz g'azaliga nazira tarzida bitilgan. Navoiyshunos olim, professor Suyima G'aniyeva "Shoira Mehri" nomli maqolalari O'zbekiston madaniyati jurnalida 1966-yil, 9-may sonida bosilib chiqqan. Tazkiraning 4-majlisida Shayhzodai Ansoriy haqida ma'lumot bera turib, uning volidasi Bediliy taxallusi bilan ijod qilganini aytib o'tadi: "Andoq zohir bo'lurkim, volidasi ham xushtab'durur va "Bediliy" taxallus qilur.

Bediliy shoirlar haqida ma'lumot beruvchi tazkiralarda, jumladan Mogai Rahmoniyxonimning "Parda nishinoni suxango'y" (Parda ostidagi so'z san'atkorlari) nomli asarida Bediliy Hirotda anchayin ma'lum shoira bo'lganligi qayd qilinadi. Mavlono Zeboiy – shoirlar haqida ma'lumot beruvchi tazkiralarda



■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva*  
Zeboiyning ayol shoira ekanligi ta'kidlanadi va Jomiy uni madh etgani bayon  
etiladi. Navoiy uni baytini eshitganligini aytadi: “Mavlono Zeboiy – faqir ani  
ko‘rmaymen, ammo she‘rin eshitibmen.



### III BOB. TAJRIBA-SINOV: NAVOIY TAZKIRASINI TO‘GARAK

#### MASHG‘ULOTLARIDA O‘RGANISH MASALASI

##### 3.1. Noan’anaviy usulda “Majolis un-nafois” tazkirasini o‘rganish metodikasi

Mustaqillik shodiyonasi tufayli ilmiy merosimizni o‘rganish borasida keng imkoniyatlar yaratib berildi. Donishmandlar “ajdodlar yaratgan kitoblarni bilmaslik nafosatdan bebahra yashashlikdir” deb yozganlar. Shukrkim, bizga bahramandlik saodatini bag‘ishlaydigan ma’naviy ummonlarimiz ko‘p, ular jahonni mangu hayratlarga chulg‘agan tafakkur javohirlariga limmo-lim. Istiqlolimiz tufayli bu javohirlar yanada yorqin jilolanmoqda – ulug‘ ajdodlarimiz qoldirgan merosni o‘rganish, kitoblarni nashr qilish ishlari dunyoning havasini keltirguday davom etmoqda.

Buni mutafakkir Alisher Navoiy asarlarining yangi-yangi nashrlari misolida ham yorqin ko‘rishimiz mumkin. Ul zot qoldirgan buyuk meros, ma’naviy durdonalar orasida o‘sha davrlardagi adabiy hayot, uning ishtirokchilari haqida ma’lumot beruvchi, ularning she’rlaridan namunalar keltirilgan, ulug‘larga ehtirom, yoshlarga e’tibor bayon etilgan «Majolis un-nafois» nomli tazkira bor. Alisher Navoiy uni ona tilida (u davrda turkiy til deyilardi) yaratib, tazkirachilikda yangi an’anaga asos solgan edi.

«Majolis un-nafois»ning qariyb Navoiy davridagi va keyingi forsiy tarjimalarini o‘rganish asnosida ular haqida maqolalar yozildi.

Ta’lim bosqichlarida o‘quvchilar asarning ahamiyatini o‘rganadilar, tazkirada keltirilgan 459 shoir haqida ma’lumotlar, ularning she’rlaridan namunalar, davr adabiy jarayoni, janrlar ravnaqi, muallif hasbi holiga oid fikrlari bilan tanishadilar.

Bu bebaho asarga o‘sha davrdan boshlab doim katta qiziqish bilan qarashgan.

Bugungi kunda yosh avlodga ushbu nodir asarlarni o‘rgatishda barchamiz mas’ulmiz. Ulug‘lar aytishganidek, chindan ham “Kitoblar o‘tmish asrlar ma’naviy hayotiga bizlarni voris qiladi”.

Adabiyotga qiziqish bolalikdan boshlanadi. Ta'limning turli bosqichlarida mumtoz adabiyot sarhadlarida qalam tebratib, g'oyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan durdona asarlar o'rgatilib kelinmoqda.

1961-yil Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarining ilmiy-tanqidiy matni (arab yozuvida) kattagina so'zboshi bilan nashr etildi. Shunda Moskva, Leningrad, Eron, Afg'oniston, Turkiya olimlari bu kitobga juda katta qiziqish bildirgan edilar. Shunday ekan, xorijliklar qiziqqan asarlar jozibasi o'zimizda ulkan mas'uliyat va javobgarlik bilan o'rgatilmog'i lozim. Yoshlarda ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishimiz darkor.

Darhaqiqat, donishmandlar aytganidek, ilm, o'qish va o'rganish bizni boy o'tmishimizning ma'naviy vorislariga aylantiradi. Ilm, kitob ko'ngil shamchirog'idir. Bu haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak. Farzandlar ta'lim-tarbiyasi faqat davlat ishi emas, bu oila mas'uliyati hamdir. O'quvchilar o'z ajdodlari qoldirgan ma'naviy meroslarni bilishlari kerak. Buning uchun esa ular kitob bilan do'st bo'lishlari lozim bo'ladi. Zero, ahli ilmlar aytganidek: "Kitoblar qalbni yoritadi, insonni yuksaklikka ko'taradi. Eng yaxshi orzu-istaklarni uyg'otadi, aqlni charxlaydi".

Ta'lim-tarbiya mushtarakligida, yoshlar ongida ezgulikning singdirilishida adabiyotning o'рни beqiyos. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2016-yil 19-oktabrda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII syezdidagi saylovoldi ma'ruzasida bildirilgan ayrim fikrlari mazkur mavzuda keng mushohada qilindi. Ma'ruzada bugungi kunda axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, internet tizimini keng rivojlantirmasdan turib, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, barqaror taraqqiyotga erishish haqida so'z yuritish mumkin emasligiga e'tibor berilgan.

«Yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva* oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi"<sup>21</sup>.

Bizning asosiy maqsadimiz ta'lim jarayonini shaxsning hayotiy qiziqishlarini qondirishga, umumiy madaniyatini shakllantirishga, uning jamiyat hayotida moslashuvi, ta'lim va kasbiy dasturlarni ongli ravishda tanlay olishi hamda o'zlashtira olishga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun shaxsni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash shakl va metodlarini ishlab chiqish, ma'rifiy ishlarni rivojlantirish, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari, xususan, ta'lim sifati, ularning madaniy va ma'naviy-axloqiy darajalariga talabni oshirish o'quv-tarbiya jarayonini eng yangi o'quv-metodik to'plamlar, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan to'la ta'minlash zarur.

Alisher Navoiy ijodiyotiga qiziqish shoir hayotligi davridayoq boshlangan edi. O'sha davr tarixchilari va shoirlari unga yuksak baho berdilar va undan ijodiy foydalandilar. Hatto shoir asarlariga maxsus lug'atlar ham tuzilgan edi. XVI asrdan boshlab Navoiy asarlari boshqa tillarga tarjima qilina boshlandi. Masalan, yuqorida aytib o'tganimizdek, shoirning "Majolis un-nafois" asari XVI asrda fors tiliga uch marta tarjima qilingan edi.

Navoiy ijodi – tarbiya asosi Alisher Navoiy tavalludi har yili turli tashkilotlarda, xususan, ta'lim muassasalarida madaniy-ma'rifiy tadbirlar, navoiyxonlik kechalari o'tkazilishi an'anaga aylangan.

Respublikamizning turli viloyatlarida Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog'lari, muzey va kutubxonalar tashkil qilingan.

Alisher Navoiy ijodiy merosini o'rganishga bag'ishlangan dars yoki to'garak mashg'ulotini shahardagi buyuk mutafakkir nomi bilan ataladigan markaziy madaniyat va istirohat bog'ida tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

---

<sup>21</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII syezdidagi saylovoldi ma'ruzasi. // "XXI asr". 2016. 20-oktabr.

Dars va to‘garak mashg‘ulotlari Alisher Navoiyning Samarqandda kechgan hayoti, bu yerda olgan saboqlari va uning ijodida tutgan ahamiyatiga bag‘ishlanadi. To‘garak mashg‘ulotlarida asardagi badiiy ijod asosi va mohiyatini belgilovchi nazariy masalalar yuzasidan ham fikr yuritish kerak.

Bejiz emaski, Alisher Navoiy xoh boshlovchi, xoh tajribali shoir haqida gapirmasin, eng avvalo, ular asarining tili, badiiy san’atlarni ishlatishdagi novatorligi, fikrning ifoda usuli hamda obrazlar bilan qanchalik uyg‘un, mutanosib ekanligiga e’tibor beradi. She’rning ma’nosi deganda ulug‘ shoir yangi ifodalar orqali zavq bag‘ishlaydigan ta’sirchanlikni nazarda tutadi. Shoirning xayoloti, kuchli iboralari latif bo‘lsa — she’r shuncha “ko‘ngulga mahbub”dir. She’riy til alohida qonuniyatga ega, u “e’joz maqomida turishi” lozim. Ravonlik va latofat, serohanglik va serma’nolik, xullas, badiiy mukammallik hamma uchun birday talab mezonidir. Butun-butun dostonlarda bitta qofiya yo bir o‘xshatish noo‘rin bo‘lsa, tanqid qilinib, tuzatilishi talab etilgan. Bu shaklbozlik emas, balki so‘z san’ati uchun, badiiyat uchun kurash, go‘zallikni himoya qilish edi.

Alisher Navoiyning madaniyat va ma’naviyat, adabiyot taraqqiyoti uchun qilgan ishlari, yosh iste’dodlar tarbiyasiga g‘amxo‘rligi hozir ham ahamiyatli va ibratlidir.



### **3.2. “Majolis un-nafois”ni o‘rganishda yangicha yondashuv**

To‘garak mashg‘ulotlarida ilmiylik ta‘limning mazmuniga ham, usullariga ham aloqadordir. Shunday ekan, bilim, ilm-fan bilan o‘quv predmeti o‘rtasida hamkorlik o‘zaro bog‘liqlik bo‘lishiga erishish lozim. Ta‘limning hamma bosqichlarida ilmiy izohlardan foydalanmoq lozim. Bizningcha, mana shu omillar qatoriga shaxslararo munosabatlarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi, o‘quvchilarning odilona muloqotga o‘rgangani, jamoa va guruhlarda ijobiy muhit yaratilgani maqsad sari yo‘naltirilgan rejalarning yaxshi natijasidir.

Har bir pedagog ta‘lim bilan tarbiya berishga jiddiy e‘tibor berishi lozim. O‘quvchi yoshlarga tarbiya berishda ularga yuksak fuqarolik his-tuyg‘ularni sifat va xislatini tarkib toptirishda ta‘lim va tarbiya birligi muhim ahamiyat kasb etgan. Maktabda o‘qitiladigan har bir fanning o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyati va imkoniyatlari bor. Ana shu imkoniyatlardan o‘z o‘rnida to‘g‘ri foydalanish o‘qituvchining bilim, tajriba va mahoratiga, izlanishiga bog‘liq. Ta‘limiy-tarbiyaviy omil va vositalar ko‘p. To‘garak sinfdan tashqari ishlarning asosiy turi bo‘lib, u o‘quvchilarning doimiy barqaror tarkibi bilan ish ko‘radi. To‘garakka a‘zo bo‘lish ixtiyoriy, ammo uning mashg‘ulotlariga qatnashish majburiydir. Adabiyot, ona tili va o‘zbek tili to‘garagining a‘zolari 10-15 o‘quvchini tashkil etishi kerak. Ular parallel sinflardan iborat bo‘lsa, mashg‘ulotlarni samarali, qiziqarli tashkil etish imkoniyatlari kengayadi. Agar maktabda parallel sinflar bo‘lmasa, guruh bitta sinfdan tashkil qilinadi.

O‘quvchilar to‘garakning maqsadi, vazifalari yillik rejalari bilan tanishadilar. Mashg‘ulotlar haftada bir marta o‘tkazilgani ma‘qul. To‘garak ishlarini rejalashtirishda o‘quvchilarning qiziqishlari inobatga olinadi.

To‘garak mashg‘ulotlari dars mashg‘ulotlarini takrorlamaydi. Umumta‘lim maktab dasturlarida “Majolis un-nafois”ni o‘rganish uchun dars soati ajratilmagan. To‘garak mashg‘ulotida o‘quvchilar uchun juda zarur sanalgan nazariy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan mavzular tanlanadi. O‘sha mavzu to‘garak

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva* mashgʻulotida toʻldiradi va takomillashtiradi. Dars tuzilishi va qurilishi jihatidan muayyan qoliplar asosida tashkil etilsa, toʻgaraklarda esa bunday qatʻiylik boʻlmaydi. Birinchi mashgʻulot shundan iboratki dastavval, toʻgarakka nom qoʻyish kerak.

1. Oʻquvchilarga toʻgarakning maqsad va vazifalarini tushuntirish ishlari olib boriladi. “Toʻgarak bizga nima beradi?” mavzusida suhbat uyushtiriladi.
2. Oʻquvchilarning til odobi, soʻzlash madaniyati xususida bilgan maqollarini soʻrash va mazmunini sharhlash talab qilinadi.
3. Oʻquvchilar oʻzlari yoqtirgan asar boʻyicha sahna asari yaratishadi.
4. Badiiy asarlar mutolaasiga vaqt ajratiladi.

Oʻquvchi toʻgarak mashgʻulotlarida darsda olgan bilimlariga tayangan holda hayotiy tajribalarni ishga soladi. Toʻgarak mashgʻulotida “Majolis un-nafois”ni oʻrganish uchun asar matni oʻquvchilarga tarqatiladi. Oʻquvchilar asar boʻyicha krossvordlar tuzish va uni yechish, insho tanlovi oʻtkazish boʻyicha jarayonlardan oʻtadilar. Maʼlum bir sheʼriy asar yoki hikoyaning til xususiyatlari ustida ishlash singari ishlar toʻgarak mashgʻulotlarining qiziqarli oʻtishini taʼminlaydi. Oʻquvchilarning dars jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash va ijodiy faolligini oshirishda darsdan keyin tashkil etiladigan toʻgarak mashgʻulotlarining roli katta ekanini hisobga olib, har bir fan oʻqituvchisi oʻz fani yoʻnalishida toʻgaraklar tashkil etadi. Fan oʻqituvchisi reja asosida oʻz fanidan oʻzlashtirishga oqsayotgan boʻsh oʻzlashtiruvchilar bilan shugʻullanib, oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakalarida aniqlangan boʻshliqlarni toʻldirib boradi. Iqtidorli oʻquvchilar bilan alohida qoʻshimcha mashgʻulotlar olib boriladi. Oʻquvchilarning qiziqishlari asosida fan oʻqituvchisi tomonidan tashkil etiladigan toʻgarak mashgʻulotlari oʻquvchilarning bilimlarini mustahkamlash, kengaytirish, ijodiy faolligini oshirishga boʻlgan ishtiyoqlarini oʻstiradi. Ayniqsa, ushbu tadbir oʻquvchilarning boʻsh vaqtini unumli va mazmunli oʻtishida xizmat qilishi katta ahamiyatga ega. Bunda bugun aksariyat taʼlim muassasalarida faoliyat yuritayotgan “Yosh matematik”, “Yosh kimyogar”, “Yosh biology”, “Yosh fizik”,

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva*  
“Ifodali o‘qish”, “Chiroyli yozuv”, “Yosh tarixchi”, “O‘lkashunos”, “Yosh ijodkor”, “Yosh mussavir”, “Adabiyot gulshani” kabi fan, ijodiy, kasbiy hamda sport to‘garaklarining o‘rni alohida ekanligini yaxshi bilamiz. Fan to‘garaklari mashg‘ulotlari shu fan sir-asrorlarini, fanga oid qiziqarli ma’lumotlarni berish orqali o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirib boradi. Ayniqsa, maktablarda ona tili va adabiyot, o‘zbek tili, rus tili, ingliz tili va boshqa xorij tillari o‘qituvchilari tomonidan teatr to‘garaklari tashkil etish o‘quvchilarni o‘z ustida ishlash, qobiliyat va iste’dodlarini to‘la namoyon etish imkoniyatini beradi. Ma’lumki, bunday to‘garaklar mashg‘ulotlari har bir o‘quvchi uchun qiziqarli bo‘ladi. Hatto maktabda bilimi bilan oqsayotgan, bilim olishga qiziqmayotgan o‘quvchilar bo‘lsa, xoh adabiyot, xoh xorijiy tildan bo‘lsin, albatta, tadbirlarga qiziqadi. Tajribali o‘qituvchi o‘quvchilarning aynan mana shu xislatlaridan foydalanib, o‘quvchilarni to‘garakka jalb etadi. To‘garak mashg‘ulotida o‘quvchilar nafaqat Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarini, balki mumtoz adabiyotning nodir durdonalarini o‘rganishi maqsadga muvofiq.

To‘garak mashg‘ulotlarining ko‘p afzalligi bor. O‘quvchilar o‘quv rejasidan tashqari badiiy adabiyotlarni o‘qiydilar, o‘zlashtiradilar. Ayniqsa, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchini a’lochi o‘quvchi darajasiga olib chiqishi mumkin. To‘garak rahbari mohir o‘qituvchi bo‘lishi bilan birga malakali psixolog, logoped, notiq, nutq madaniyatini to‘la o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim. Ayniqsa, aktyorlik, rejissyorlik mahoratiga, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi. O‘z o‘rnida ta’kidlash joizki, ayrim o‘qituvchilar ko‘pincha sahna asarlarini ijro etish uchun eng a’lochi, qobiliyatli, nutqi ravon o‘quvchilarni tanlashadi. Nutqida kamchiligi bor, tortinchoq o‘quvchilar esa chetda qoladi. Mumtoz adabiyot namunalari uchun ham sahna asarlari, “Rolli o‘yinlar”ni tashkil etish asarga, muallifga va adabiyotga havasni va muhabbatni uyg‘otadi.

Teatr to‘garagi ta’limiy xarakterga ega bo‘lib, unga o‘zi xohlagan barcha o‘quvchilar iqtidoridan qat’i nazar qabul qilinishi eng muhim jihat hisoblanadi. Dars jarayonida faol qatnashmaydigan o‘quvchi o‘z xohishi bilan bu to‘garakka



■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva*  
a'zo bo'ldimi, bu uning o'z ustida ishlashga qo'ygan birinchi qadami, demak u orzusi yo'lida harakat qilyapti. Maktabda tashkil etiladigan ta'limiy teatr to'garak mashg'ulotlari dars maqsadlarini to'ldirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, ta'lim va tarbiya ajralmas bir butunlikni tashkil etadi. Ya'ni darsda o'quvchi ta'lim jarayonida tarbiyalanadi, ta'limiy teatrda esa o'quvchilar rol ijro etish jarayonida tarbiyalanadilar. To'garak rahbari mashg'ulotlar davomida iqtidorli, nutqi ravon, diksiyasi kuchli, aktyorlik mahorati kuchli bo'lgan o'quvchilarni alohida guruhga, nutqida kamchiligi bor, lug'at boyligi kam, bosh o'zlashtiruvchi, lekin sahna asarlarida rol ijro etishga qiziqadigan o'quvchilarni alohida guruhga jamlaydi. Sahna asari ham ikkala guruhga alohida tanlanadi.

To'garak mashg'ulotida "Majolis un-nafois"ni o'rganish uchun, avval lug'at ishi o'tkaziladi. Sahna asari rollari o'quvchilarga bo'lib berilgandan so'ng, har bir o'quvchining ijrodagi kamchiligi aniqlanib, tuzatilib boriladi. O'quvchi bu jarayonga o'zi qiziqqanligi tufayli ham yod olish, ifodali o'qishga nutqiy kamchiliklarni tuzatish dars jarayonidagi uslubdan farq qiladi va oson kechadi.

Bu to'garak rejasiga badiiy o'qish, she'rxonlik, dramatik asarlarni sahnalashtirish bilan birga hududda joylashgan teatrlarga, madaniyat uylariga, kutubxonalarga, adabiyot muzeylariga ekskursiyalar uyushtirish, ijodiy uchrashuvlar o'tkazish kabi tadbirlar ham kiritilishi maqsadga muvofiq. Teatr to'garak faoliyatini yoshlar yetakchisi bilan birgalikda direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari muvofiqlashtirib boradi. Adabiyotdan faoliyat yuritadigan teatr uchun ssenariylar ona tili va adabiyoti hamda o'zbek tili fani metodbirlashma tomonidan o'rganilishi va tayyor bo'lgan sahna asari tomoshasi namoyish etilishidan avval metodbirlashma nazoratidan o'tkazilishi- ayrim jiddiy kamchiliklarni tuzatish imkoniyatini berilishini unutmazlik lozim.

To'garak mashg'ulotlari uning a'zolari tomonidan sahnalashtirilgan kichik ko'rinishlarni bayram ertaliklari, muhim sanalarga bag'ishlangan tadbirlarda namoyish etishning ham tarbiyaviy ta'siri katta. Ayniqsa, ota-onalar yig'ilishlarida, mahalla bilan hamkorlikda o'tkaziladigan tadbirlarda to'garak repertuarlaridagi

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva* sahna asarlari, badiiy kompozitsiyalar namoyish etilishi katta ma'naviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi. Har bir sahna asarini tayyorlash to'garak a'zolari uchun ham til o'rganishini osonlashtiruvchi jarayon ham zavqli ijod, ham katta mehnat, ham iqtidorini rivojlantirish, ham bilimlaridagi bo'shliqni to'ldirish bilan birga ularni kasbga yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olish darkor. Maktablarda ta'limiy teatr faoliyatini takomillashtirish o'qituvchilar oldida turgan dolzarb vaifalardan biridir. Demak, buyuk ajdodlarimizning sharaflari, g'ururga boy meroslarini o'rgatish, tadbiiq etishda ham shunday ajoyib tadbirlarning, to'garaklarning o'rni beqiyosdir. Shu jihatlar o'quvchilarda adabiy-estetik tushunchalarni shakllantirishda "Majolis un-nafois" asarining ahamiyatini belgilaydi.

Mir Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarini ta'lim bosqichlarida o'rganilishi xususida fikr bildiradigan bo'lsak, bu jarayon ta'lim bosqichlarida o'rganilarmikin degan savolni o'z oldimizga qo'ygan holda adabiyot darsliklari bilan tanishib chiqdik. Chunonchi, Navoiyning 5-sinf darsligida "Hayrat-ul abror" dostoni; 6-sinf darsligida "Mahbub-ul qulub" asari; 7-sinf darsligida "Sab'ai Sayyor" dostoni, 8-sinf darsligida lirikasi; 9-sinf darsligida "Farhod va Shirin" dostoni; kasb-hunar kollejlari darsligida "Hayrat-ul abror", "Layli va Majnun" dostonlari, akademik litsey darsligida shoir lirikasi va "Xamsa" dostoni o'rin olgan. Demak, ta'lim bosqichlarida Navoiy ijodi o'rganilsa-da, "Majolis un-nafois" tazkirasi maxsus kiritilmagan. Navoiyning ushbu asarida ustoz-shogird munosabatlari, odob-axloq masalalari qalamga olingan. Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu tazkirani darsliklarga kiritilmaganligi sababli umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning adabiyot to'garagi mashg'ulotlarida o'tilishini tavsiya qilamiz. To'garak mashg'uloti quyidagi usullar orqali olib borilishi mumkin.

### **1. "Konseptual jadvallar bilan ishlash".**

Bunda asardan kelib chiqib turli jadvallar tuzish va shu orqali asar haqida boshlang'ich ma'lumot berish. Masalan:

Majlislar	Shoirlar soni
1-majlis	46
2-majlis	89
3-majlis	174
4-majlis	71
5-majlis	21
6-majlis	31
7-majlis	22
8-majlis	1-Husayn Boyqaro

Shu kabi bir qancha jadvallardan foydalanish mumkin.

## 2. Taqdimot asosida.

Bunda asarda keltirilgan shoirlar orasidan taniqlilari saralab olinadi va ularning insoniy fazilatlarini tahlil etish orqali o‘quvchi shaxsi tarbiyalanadi. Masalan:

Xoja Fazlulloh Abullaysiy – .....Sayid Sharifning shogirdi erdi va Sayid o‘z xatlari bila ulumi dars ayturg‘a ijozatnomalar aning uchun bitib erdi. Faqir ikki yil alarning qoshida sabaq o‘qub erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, “farzand” der erdilar.

**3. Baytlar tahlili.** Asarda shoirlarning ijod namunalari ham keltirilgan bo‘lib, ularni tahlil qilish orqali ijodkorlarning badiiyati bilan yaqindan tanishish, o‘quvchilarda mumtoz lirik asarlarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish nazarda tutiladi. Mavlono Osafiyning quyidagi baytlari tahlilga tortilishi mumkin:

Yuz balolar ko‘rdum, ul oromi jondin ko‘rmadim,  
Ikki ko‘zumdin yomonlik ko‘rdum ondin ko‘rmadim

## 4. Asardagi turkiy va forsiy shoirlarni aniqlash.

## 5. Asar lug‘ati bilan ishlash.

Masalan:

Tab-----.....

Hazzol-----xazilkash

Abyot-----baytlar

Rushdi-----.....

**6. Asarda ustoz va shogird munosabatlari haqida yuksak fikrlar keltirilgan bo‘lib, bugungi kundagi ahamiyati qay darajada? Ya’ni:**

Kecha — Bugun — Ertaga..... Shu haqda kichik bahs-munozara o‘tkazish.

**7. Matn bilan ishlash.**

Bu jarayonda “Majolis un-nafois”ning asl matni bilan ishlash maqsadga muvofiq sanaladi. Ya’ni asarning ilmiy-tanqidiy matnidan parchalar beriladi.



### 3.3. Olib borilgan amaliy ishlar bo'yicha tahlil

O'quvchini ijodiy izlanishi, nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun to'garakning yillik taqvimiy rejasi tuziladi. Adabiyotdan to'garakni "Adabiyot gulshani" deb nomladik. Quyida to'garak ishlarini olib borish uchun yillik taqvim-rejasini havola qilamiz.

#### **"Adabiyot gulshani" to'garagining 9-sinf o'quvchilari uchun olti oylik ish rejasi**

T/r	Mavzular rejasi	Soat	Sana	Kun	vaqti
1	Adabiyot haqida bahs	2	4-8 -09	Juma seshanba	14 <sup>00</sup> 15 <sup>00</sup>
2	Badiiy asar nima?	2	15-22-09	Seshanba	14 <sup>00</sup> 15 <sup>00</sup>
3	Mumtoz adabiyot jozibasi	2	22-29-09	seshanba	14 <sup>00</sup> 15 <sup>00</sup>
4	Mahmud Koshg'ariy ijodi	2	6-13 -10	Seshanba	14 <sup>00</sup> 15 <sup>00</sup>
5	Yusuf Xos Xojibning saodatli ijodi	2	20-27-10	Seshanba	14 <sup>00</sup> 15 <sup>00</sup>
6	Alisher Navoiyning "Majolis un -nafois" asarini o'rganish	2	3-10-11	Seshanba	14 <sup>00</sup> 15 <sup>00</sup>
7	Mumtoz adabiyot janrlari	2	17-24-11	Seshanba	14 <sup>00</sup> 15 <sup>00</sup>
8	Dramatik tur haqida tushuncha	2	1-1 -12	Seshanba	14 <sup>00</sup> 15 <sup>00</sup>
9	Teatr va adabiyot	2	15-22-12	Seshanba	14 <sup>00</sup> 15 <sup>00</sup>
10	Mening sevimli qahramonim	2	29-12-01	Seshanba	14 <sup>00</sup> 15 <sup>00</sup>

To'garak mashg'ulotlarida taqdim qilinadigan dars ishlanmalar "Dars-muqaddas" tavsiyasiga binoan tayyorlanadi.

**Mavzu: Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarini o‘rganish**

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish.

**Tarbiyaviy:** Navoiy ijodidagi didaktik jihatlarga alohida e’tibor qaratish, o‘quvchilar ma’naviyatini yanada rivojlantirish.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning badiiy adabiyotga qiziqishini orttirish.

**Nutqiy kompetensiya:** ifodali o‘qish, o‘quvchi nutqidagi kamchiliklarni tuzatish, og‘zaki nutqni rivojlantirish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:** doimiy ravishda o‘zini o‘zi mustaqil va ijodiy rivojlantirish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, mustaqil qaror qabul qila olish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

– vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy asarlarni tushunish, nutqiy me’yorlarga rioya qilish va sog‘lom turmush tarziga amal qilish.

**Darsning turi:** amaliy, nazariy.

**Darsning usuli:** aqliy hujum, savol-javob, guruhlarda ishlash.


**Darsning jihozi:** darslik, ko‘rgazmali qurollar.

**Didaktik jihoz:** tarqatma materiallar, slaydlar.

**Darsning borishi (reja):**

**I. Tashkiliy qism:** a) salomlashish, b) tozalikni aniqlash, d) davomatni aniqlash; e) darsga tayyorgarlik ko‘rish va dars rejasi.

**II. O‘tilganlarni takrorlash.** Yangi oq qog‘ozga uycha ko‘rinishidagi stikerlardan foydalangan holda ma’lum bir shakl hosil qilib joylashtiriladi, ushbu stikerlarga avvalgi mavzu yuzasidan savollar yashiringan bo‘ladi. Masalan, o‘quvchilarga mumtoz adabiyot vakillarining hayoti va ijodiga aloqador, uning g‘azallariga aloqador savollar o‘rin olgan bo‘ladi.



**Masalan, stikerlarda quyidagi savollar o‘rin olgan:**


1. M.Koshg‘ariy qayerda tug‘ilgan?
2. Yusuf Xos Hojib kimning saroyida xizmat qilgan?
3. M.Koshg‘ariyning devonida yozilgan maqollarni ayting.
4. Devonining qo‘lyozma nusxasi qayerda saqlanadi?
5. Navoiy ijodida ko‘proq qaysi timsol vasf etiladi?

**III. Yangi mavzu bayoni:** Dastlab Navoiy hayoti haqida ma‘lumot beriladi, keyinchalik esa adib ijodiga to‘xtaladi. Navoiyning ijodiy merosi bilan tanishtiriladi. Nafaqat Navoiy hayoti balki, o‘sha davrdagi ijtimoiy hayot haqida ham ma‘lumot keltirib o‘tilgan. Masalan, Temuriylar davri haqida, Shayboniy haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Bobur Mirzo, Husayn Boyqaro, Sulton Ahmad Mirzo kabi buyuk adiblarimiz ham o‘sha davrda yaratgan she‘rlari, ya‘ni o‘z ijod mahsullari shu davrda ham mashhur bo‘lganligi tilga olingan. Navoiy haqida Zahiriddin Muhammad Boburning bildirgan fikrlari bilan tanishtiriladi. Ko‘plab adiblarning Navoiyga bergan ta‘riflari tanishtiriladi. Yana bulardan tashqari Alisher Navoiy haqida uning zamondoshlari qismida esa Navoiyga aloqador bo‘lgan qimmatli ma‘lumotlar bilan o‘quvchilar bilim boyligi oshiriladi. Unda Abdurahmon Jomiy, Rashidiy, Hakimshoh Qazvinii va Xondamir tomonidan aytilgan ma‘lumotlar bilan tanishtiriladi. Navoiy ijodida uchraydigan so‘zlar hozirgi o‘zbek tilida qanday ma‘no anglatishi kabi jihatlarga alohida e‘tibor berilgan. Navoiy hayoti va ijodiga oid ma‘lumotlar bilan tanishilgach, g‘azallar,

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva*  
ruboiylar bilan ishlanadi. O‘quvchilr bilan bahru-bayt musobaqasi  
tashkillashtiriladi.

“Davom ettir” o‘yini asosida tuzilgan savollar orqali o‘quvchilarga murojaat  
qilinadi. Bunda o‘qituvchi tomonidan Navoiy g‘azallarining birinchi misrasi  
yoziladi va qolgan ikkinchi misrasini o‘quvchining o‘zi mustaqil tarzda yoddan  
o‘qib berishi kerak bo‘ladi.. Yana undan tashqari, g‘azallarda uchraydigan,  
tushunilishi qiyin so‘zlarning ham ma’nosi yozma tarzda savol tariqasida  
o‘quvchiga taqdim etiladi va o‘quvchi bu so‘zning ma’nosini yoddan aytib bera  
olishi talab etiladi.

O‘quvchilarga Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarining matni  
tarqatiladi. O‘qituvchi taqdimotlardan foydalanishi mumkin.



**TURLI YO‘NALISHDAGI ASARLARI**

- O‘tmish mavzusida «Tarixi mulki Ajam» («Ajam, ya’ni arab bo‘lmagan mamlakatlar tarixi»);
- «Tarixi anbiyo va hukamo» («Payg‘ambarlar va donishmandlar tarixi») asarlarini yozgan.
- Aruzga doir «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o‘lchovi»);
- Tazkirachilikka oid «Majolis un-nafois» («Nafis majlislar») kabi asarlar yaratdi.
- Lug‘atshunoslikka oid «Sab‘atu abhur» («Yetti dengiz») nomli kitob yozdi.
- Muhokamat ul-lug‘atayn» («Ikki til muhokamasi») asarida turk (o‘zbek) va sort (fors) tillarini solishtirib, o‘z ona tilining tuganmas imkoniyatlarini ilmiy asoslab berdi.



**NAVOIYNING MASHHUR QIT'ALARI**

- **KAMOL KASBIGA DALOLATU NUQSONIDIN IZHORI MALOMAT**

**Kamol et kasbkim, olam uyidin  
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.**

**Jahondin notamom o'tmak biaynih  
Erur hammomdin nopok chiqmoq.**

\*

- "G'aroyib us-sig'ar"ning 10-qit'asi.
- Qit'ada shoir kishilarni o'zini har taraflama o'stirishga undaydi. Hatto, bu umrning bosh mazmuni dajasidagi masala qilib qo'yilgan. Alisher Navoiy hammomga kirib, nopok chiqish qanchalar mantiqsiz bo'lsa, dunyoga kelib, kamolga yetmay o'tish ham shunchalar bema'nilik ekanini ochiq-oydin aytgan-qo'ygan.

O'quvchilar berilgan matnni tahlil qiladilar.

"MAJOLIS UN-NAFOIS" ("Nafislar majlislari") - Turkiy tazkirachilikning ilk namunasi. Asarda 15-asrda Xuroson va qo'shni mamlakatlarda yashagan shoir, yozuvchi va olimlar (jami 459 kishi) ijodiga oid qisqa ma'lumotlar berilgan. Ma'lumotlar yillar, geografik o'rinlar hamda sulolaviy tartiblarga tayanib joylashtirilgan va "majlis"dan iborat.

- ▶ 1—2-majlislarda muallifning
- ▶ salafarlari — tazkira yozilayotgan
- ▶ vaqtda hayot bo'lmagan shoirlar,
- ▶ 3-majlisda o'ziga zamondosh shoirlar
- ▶ haqida ma'lumotlar keltirilgan.
- ▶ 5—6- majlislarda Xuroson, Samarqand, Xorazm, Qarshi, Badaxshon, Qazvin, Sova, Kirmon, Sheroz va boshqa joylardan chiqqan qalam ahillari haqida;
- ▶ 7-majlisda esa temuriylarga mansub shoirlar haqida fikr yuritilgan.
- ▶ 8 -majlis Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan.



■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva*  
Tazkirada shoirlarning bilim darajasi, axloqi, dunyoqarashi, mehnatga munosabati kabi xususiyatlari alohida ko'rsatilgan. Har bir shoirga berilgan tasnif uning ijodidan namuna keltirish bilan asoslangan.

O'qituvchi quyidagi ma'lumotlarni beradi:

*Tazkira 15-asr o'zbek ilmiy nasrining go'zal namunasi hisoblanadi.*

*«Majolis un-nafois» boshqa xalqlar tillariga ham tarjima qilingan va tazkirachilik ishiga samarali ta'sir ko'rsatgan. Chunonchi, 16-asrda fors tiliga 3 marta (Faxriy Hirotiy, 1521—22, Hirot; Qazviniy, 1522—23, Istanbul; Shoh Ali, 1598, Nishopur) tarjima qilingan. Shoir Sodiqiy «Majolis un-nafois»dan ilhomlanib, turkiyda «Tazkirai majma ul-xavos»ni tuzgan. «Majolis un-nafois»ning 15-asr oxiri — 16-asr boshlarida ko'chirilgan bir necha nusxasi Vena, Parij, Boku, Sankt-Peterburg, Toshkent va boshqa joylarda saqlanmoqda.*

Navoiy ijodkor shaxs haqida gapira turib, birinchi navbatda, uning iste'dodi darajasini belgilaydi. Chunonchi, «xushta'b kishi», «yaxshi tab'lik yigit», «tab'i ham, hofizasi ham yaxshi», «tab'g'inasi bor», «nazmg'a mayli bor» kabi iboralar orqali shoirning ijodiy iqtidori, she'r aytish mahoratini farqlaydi.

*«Mavlono Sayfiy ... hushyorlig' va base odamivash va hayo va odoblig' yigitdur. Ammo sarxushlikda o'zga mohiyat bo'lur, balki rasvonamo bo'lur edi. Bu uchurda tavbag'a tavfiq bo'ldi. Umid ulkim, istiqomatg'a ham muvofiq bo'lg'ay».*

Sherozdan Hirotga o'qishga kelgan Said Qaroza ismli kimsasiz yetim bolani Navoiy o'z tarbiyasiga olib, unga alohida murabbiylar tayinlaydi, “shafqat va mashaqqatlar” ko'rgizadi. Afsuski, ko'p o'tmay, bolada nojo'ya qiliqlar zohir bo'ladi. Shoir uni tuzatish choralari ko'radi. Ammo foyda bermaydi. Oqibatda bu yigit Hirotida turolmay, Samarqandga qaytadi va u yerdagi xamriy — mayxo'rlarga qo'shib, butunlay nobud bo'ladi. Samarqandlik yosh shoir Said Qutb Lakadang esa badaxloqligi tufayli hibsga olinib qatlga hukm etiladi. Alisher Navoiy oraga tushib qatlni bekor qilishga erishadi. Lekin “ul nokasgina” bundan xulosa

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva* chiqarmay, o‘z yurtiga qochib, yomon ishlarini davom ettiradi. Bunday hollar Navoiyni behad ranjitgan. O‘zini idora qilolmagan, yaxshilikni, hurmatni bilmagan kishilardan, garchi ularda iste’dod nishonasi bo‘lsa-da, chinakam ijodkor chiqmasligini aytib, ularning taqdiriga achinadi.

Navoiy tanqidiga uchragan salbiy xislatlardan yana biri — dangasalik, iste’dodni istifoda qila bilmaslikdir:

*«Mavlono Nodiriy yaxshi tab’i bor, ammo ko’p lavanddur. Muddate faqir bila musohibat erdi, o’zin lavandlig’in zabt qila olmadi, yana o’z ishini keyinga yubordi». Shoir Qobuliyning «dimog’ida pareshonlig’ va tavrida lavandlig’» .*

Mavlono Nodiriy dangasa bo‘lganligi uchun tahsilni oxiriga yetkazmagan va muddaosiga erisha olmagan.

Xorazmlik Joniy degan shoirning esa mahoratini farqlaydi:

*«Xeyle junun zotida borkim, salohiyat kasbiga mone’dur, yo’q ersa g’arobatlig’ tab’g’inasi bor».*

Mavlono Kavsariy haqida shunday deyiladi:

*«tab’ida nazm aytur qobiliyati bor, ammo mashg’ulluq qilmas».*

Bunday yoshlarning bir qismi Navoiy va Jomiyning tanbehlarini quloqqa ilib, «tuz yo‘lga» kirganlar, ulug‘ shoir bu holni xursandchilik bilan qayd etib, ular istiqboliga umid bildirgan.

O‘quvchilar o‘rtasida bahs-munozara davom ettiriladi.

Navoiyning fikricha, ijodga dil bog‘lagan odamda, albatta, tabiiy iste’dod — ta’b bo‘lishi lozim. Quruq havas bilan shoirlik da’vo qilish yaramaydi. Eng yomoni shuki, deb kuyinadi shoir, quruq nazmni she’r atab,

*«yuz mashaqqat bilan bir bayt bog'layturgan, da'vosini esa yetti falakdan oshiraturgan»lar ham bor, deya ta'kidlaydi.*

Ba'zan ulardan biror yaxshi bayt ham voqe bo'lar, lekin bu hali shoirlik da'vosini qilishga huquq bermaydi. Axir, shoir so'zida haqiqat va ma'rifatdan bahra beradigan ma'no, shavq-u zavq va *“shu'la-afkan harorat”* bo'lmog'i lozim. Shoirona tarkiblar dardli, yoniq yuraklarda paydo bo'ladi.

Haqiqiy iste'dod nishonasi mavjud odamda ilm olishga ishtiyoq ham, hofiza ham kuchli bo'ladi. Navoiy buni Rumi, Sa'diy, Hofiz, Jomiy kabi yorqin siymolar misolida ko'rsatadi. Barcha ilmlardan xabardor bu donishmand zotlarning el orasida hakim-faylasuf, shayx — yo'l boshlovchi kabi tabarruk unvonlar bilan ulug'lanishlariga bois shudir. Shoir yetuk faylasuf, xiradmand odam bo'lgandagina uning so'zi xalq e'tiborini qozonadi. Biroq bu martabaga osonlikcha erishilmaydi. Bunga katta zahmat va chidam, qunt, ta'lim va tahsil orqali muyassar bo'linadi. Shuning uchun Navoiy hofiza — xotira, zehn, fantaziyaning ahamiyatini alohida ta'kidlab, takroriy mutolaa, mashq, she'r yodlashni tavsiya etadi. Mashq qilish, qayta-qayta ishlash iste'dodni o'stirishga ko'maklashadi:

*«Mavlono Mirakiy, ... kichik yoshliq xomtab'rok yigitdur.  
Imkoni bordurkim, tab'iga ko'p ish buyursa puxtaliq paydo qilur».*

Navoiy davrida yoshlarga ta'lim berish pog'onama-pog'ona ko'tarilish usuliga asoslangan edi. Ya'ni savod chiqarilgach, avval o'z ustozidan ta'lim olar, keyinchalik bilim va qobiliyati taqozo etsa, kattaroq ustozga qo'l berar, so'ng yana ulug'rog'iga o'tar edi. Shu yo'sin eng iste'dodli, saralangan yoshlar Jomiy va Navoiyga shogird tushardilar.

Qaysi sohaga qo'l urmasin, uni tez egallab oladigan qobiliyatli yoshlar Navoiy zamonida anchagina bo'lgan. Ham tarixchi, ham rassom, ham bastakor, buning ustiga, yaxshi shoir va hakimlik qo'lidan keladiganlar katta hurmatga sazovor edilar. Biroq Navoiyni bir narsa tashvishga soladi: ko'pqirrali iste'dod sohiblarining aksariyati shuncha hunarni egallagan holda amalda biror sohada

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva* o‘zlarini ko‘rsatolmaydilar. Ular goh unga, goh bunga urinib, umrni behuda o‘tkazadilar. Ko‘p o‘rganish yaxshi, lekin muayyan sohada kishilarga foyda keltirish lozim. Odamlarga nafi tegmagan iste‘dod, amalga oshmagan niyat kabi, kishiga armondir.

Yoshlardagi g‘urur, g‘ayrat va shijoatni ma‘qullash lozim, bu — yaxshi sifat, biroq uni xoksorlik, kamtarlik bilan omuxta etmoq darkor, deb biladi Navoiy. Bu borada Abdurahmon Jomiyi ibrat qilib ko‘rsatadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, seistonlik Qozizodaning she‘riyatdagi qobiliyatini e‘tirof etsa ham, ortiqcha manmanligini yoqtirmaydi. Uni Jomiy huzuriga yuborib, uyaltiradi. Do‘stlarning to‘g‘ri, beg‘araz tanqidini qabul qilish kishiga kamol keltirsa, jizzakilik, tanqidni tan olmaslik ijodkorga yarashmaydi (Buni Navoiy samarqandlik shoir Riyoziy misolida ko‘rsatgan). “Majolis un-nafois”da pand-nasihatni qulog‘iga olmay, na iste‘dodini, na ilmini ishga soladigan “*ra‘nosifat va xudoroyliq bilan avqotini (vaqtini) zoe qiluvchi*” deb ta‘kidlangan.

Osafiy singari takasaltang, xayolparast yoshlar,

*«yigitlik hoyu havosi bila pareshon»*

yuruvchilar tanqid etiladi. Alisher Navoiy yosh ijodkor tarbiyasida mehnat, uning atrofidagi kishilar, maslakdoshlari katta o‘rin tutadi, deb ta‘lim beradi. U mavlono Savsaniy haqida yozib, deydi:

*«Ozodavash kishidur, ko‘proq avqot Gavharshodbegim  
madrasasi tegrasida bo‘lur erdi, befoyda el bila musohibatlig‘ qilmas,  
nevchunkim, bejihat mashaqqatlarni o‘ziga ravo ko‘rmas. Umid  
ulkim, bu davlat barchag‘a nasib bo‘lg‘ay»*

Ijodkorning qalbi pok, xayoli toza, niyati ezgulik sari yetaklovchi ekan, uning do‘stlari, suhbatdoshlari ham shunday fozil, dono odamlar bo‘lmog‘i lozim. Johil, nodonlardan uzoq yurish yaxshi, ammo go‘shanishinlik maqbul emas, adabiy

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva* mahfillarga, munozara-musohabalariga qatnashmoq, hayotda faollik ko'rsatmoq ilhomni toblaydi, ijodiy imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

Ba'zi yoshlar salaflarni mutolaa qilish paytlarida butunlay ular ta'siriga berilib qoladilar. Ba'zan shunday ham bo'ladiki, o'zlari bilmaganlari holda salaflar misralari, iboralarini o'zlashtirib, ishlatib yuradilar. Bunday "tasarruf"dan qutulolmagan kishi mustaqil ijod qilish qobiliyatini ham asta-sekin yo'qotadi. Adabiy tahsil — mahoratni egallash vositasi, taqlid esa tab'ning yo'qligidan nishona ekanligini ta'kidlaydi Navoiy. Tabiiy zavqi, mustaqil ijod etish qobiliyati bo'lmay turib, "o'zini she'rga mansub" deb ko'rsatuvchi "el qoshida she'rxonlik" qiluvchilar adabiyotning ofatidir, she'riyatni ulardan pok tutish lozim, deya ogohlantiradi ulug' shoir.


"Majolis un-nafois"da zikr etilgan yosh shoirlarning ko'plari bilan Navoiy shaxsan tanish bo'lgan, suhbat qilib, sinab ko'rgan, xulqini kuzatgan. Lekin shoir o'zi tanimagan — "emdi paydo bo'lg'on" yoshlarning she'rlari haqida ham fikr yuritib, xolisona baholaydi va ular ijodiga rivoj — oq yo'l tilaydi. Bu jihatdan ham ulug' ustozning tutgan yo'li ibratlidir. Chunki ustoz oq yo'l tilaganda yosh ijodkorning yutuqlari bilan birga qusurlarini ham ko'rsatar, kelgusida qusurlardan qutulish choralarini tavsiya etar edi.

**To'garak mashg'uloti uchun 4 soat ajratiladi, shu yo'sinda asar matni tahlil qilinadi.**

Tazkirada keltirilgan ijobiy va salbiy sifatlar uchun lug'at tuzdirish kerak. Bu esa, o'quvchining mumtoz adabiy muhitida qo'llanilgan so'zlar bo'yicha bilimni oshiradi.

So'zlar	Bugungi kunda ishlatilishi	Ma'nodoshi
<i>Pareshon</i>	parishonxotir	Beparvo
<i>Tegra</i>	Atrof	yon-buyon
?	?	?
?	?	?

To‘garak mashg‘uloti mobaynida olingan bilim va ma’lumotlar hisobga olinib, mavzu so‘ngida taqdim etilgan savollardan foydalanib, o‘quvchilar bilimi tekshiriladi. Asarda keltirilgan insoniy fazilatlarni “T” metodida tahlil qilish mumkin:



Mavzu so‘ngida savol va topshiriqlar o‘rin olgan daqiqa ajratiladi. Shundan darsni mustahkamlash qismida savollarga javob beriladi, topshiriqlar esa bajariladi.

Tazkirada qo‘llanilgan so‘zlar bo‘yicha “Sherigini top” usulidan foydalanamiz:

The worksheet has a green background and is titled SHERIGINI TOP! in purple, stylized letters. Below the title, there are two vertical columns of five empty blue rectangular boxes each, intended for students to write words.

Agar topshiriqni bajarish ko‘p vaqtni talab qilsa, uyga vazifaga qo‘shimcha tarzda berib yuboriladi.



Qogʻozdan konvert yasaymiz, konvertga “Davom ettir” deb nom beramiz. Bu aslida oʻyinning nomidir. Nomidan maʼlumki, oʻyinning sharti davom ettirishdir. Bunda konvert ichidagi qogʻozga Navoiy yaxshi koʻrgan kishilar fazilati bir misra yoziladi, qolgan misrasini konvertdan qogʻoz olgan oʻquvchilar davom ettirishlari kerak boʻladi. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun 10ta savoldan iborat test tuziladi va oʻquvchilarga beriladi. Oʻquvchilar esa test savollariga javob berishadi.





## MAVZU YUZASIDAN TEST

**1. Alisher Navoiy qaysi asrda yashagan?**

- a) XII
- b) XV
- c) XIII
- d) XVI

**2. Kim Navoiyning kelib chiqishini baxshilarga taqaydi?**

- a) Jomiy
- b) Nizomiy
- c) Xondamir
- d) Rashidiy

**3. Navoiyning qaysi asari 459 ta shoir, yozuvchi, adiblar haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan?**

- a) Majolis un-nafois
- b) Hayrat ul-abror
- c) Mahbub ul-qulub
- d) Mantiq ut tayr

**4. Navoiyning Muhokamat ul-lug'atayn asari qachon yaratilgan?**

- a) 1499
- b) 1495
- c) 1498
- d) 1497

**5. Ehtimom so'zining ma'nosi nima?**

- a) G'amxo'rlik qilish, muxofaza qilish, asrab- avaylash
- b) Aziz, izzatli, qadrli
- c) Shirin va chiroyli kulgi
- d) Isiriq, isiriq urug'i

**6. Navoiyning "Ey, sabo..." g'azali qanday vaznda?**

- a) Hazaji musammani solim
- b) Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf
- c) Ramali musaddasi maqsur
- d) Ramali musammani maqsur

**7. Qit'a qanday qofiyalanadi?**

- a) a:a b:b d:d e:e
- b) a:a b:a d:a e:a
- c) a:b b:b d:b e:b
- d) a:a b:a d;b e:b

**8. Munshaot so'zining ma'nosi nima?**

- a) Maktublar
- b) Maktablar
- c) Nomalar
- d) Dars

**9. Munshaot asari qachon tuzilgan?**

- a) 1498
- b) 1495
- c) 1499
- d) 1493

**10. Navoiyning qaysi asari payg'ambarlar haqida?**

- a) Munshaot
- b) Majolis un-nafois
- c) Mantiq ut-tayr
- d) Tarixi anbiyo va hukamo

**To'garak mashg'ulotida** faol qatnashgan o'quvchilarga Navoiy yoqtirgan eng yaxshi so'zlar yozilgan tarqatmali tabriklar beriladi. Masalan: "O'zi pok", "So'zi pok", "Dili pok" singari.

**Uyga vazifa.** Bunda o‘quvchilar 8 guruh (majlis)ga bo‘linadilar. Har bir guruhga asardagi majlislar haqida o‘rganib kelishi, baytlardan namunalar yod olishi va asar lug‘atini tuzib kelish vazifalari topshiriladi.

**To‘garak mashg‘uloti Yakkasaroy tumanidagi 135-maktabda o‘tkazildi.**

Mashg‘ulotgacha 65 nafar o‘quvchilardan so‘rovnomalar olindi.

№		Sinfi	Foizi %	BKM
1	Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari bilan tanish bo‘lgan o‘quvchilar	8-B	18%	10%
2		9-B	19%	12%
3		10-B	20%	13%

**To‘garak mashg‘uloti tashkil qilingach, so‘rovnoma natijasi:**

60 nafar o‘quvchilardan so‘rovnomalar olindi.

№		Sinfi	Foizi %	BKM
1	Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari bilan tanish bo‘lgan o‘quvchilar	8-B	88%	80%
2		9-B	85%	82%
3		10-B	80%	78%

Xulosalar shuni tasdiqladiki, o‘quvchilarga ma’lumot berilsa, yo‘naltirilsa samaradorlikka erishish mumkin.

Fan to‘garaklarining o‘tkazilishi o‘quvchilarning badiiy saviyasi oshishida katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham to‘garaklarda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi uchun imkoniyat va vaqt yetarli tarzda amalga oshiriladi. Bu jihatlar ta’limning yuqori saviyada rivojlanishini ta’minlaydi. Mumtoz adabiyot namunalari murakkab tuyulsa-da ularning tag zamirida yashirin sinoat, qadriyat, iymon tushunchasi doim o‘zining badiiy qiymatini yo‘qotmaydi.

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarini o‘rganish orqali tarix, geografiya, adabiyot fanidan ham keng ma’lumotlar olishga zamin yaratiladi.



## XULOSA

Tengi yo‘q ijodkor, she‘riyat ahlining buyuk homiysi Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi o‘zbek tazkirachiligining asosi bo‘lib, hozirgi davrgacha bu asar o‘z qadr-qimmatini yo‘qotganicha yo‘q. Zero, zamondoshlarigagina emas, ko‘proq kelajak avlodlarga yetkazilishi ko‘zda tutilgan qimmatli va saboq bo‘larli gaplar shoirning ushbu kitobida aytilgan. Humomiddin o‘g‘li Xondamirning fasih tili bilan aytganda: “Oliy hazrat nasr fanini o‘zlashtirishda taraqqiyning eng yuqori pog‘onasiga va avjning eng yuksak darajasiga ko‘tarilgan edi...Oliy hazratning nasriy asarlaridan biri turkiy tilda yozilgan “Majolis un-nafois”dir. Bu aziz kitob hazrati xoqon Shohruh Mirzo podshohligi davridan boshlab, shu zamonga qadar yer yuzini ravshan vujudlari bilan bezagan va bezab turgan olim va shoirlardan ko‘plarining ba‘zi sifatlaridan va ahvollaridan bayon qiladi”.

“Majolis un-nafois” e‘tibor bilan varaqlab chiqilar ekan, undagi sakkiz badiiy majlisning har birida o‘quvchi ko‘z o‘ngida turli-tuman qismatlar, xilma-xil xarakterlar va chegaralanmagan imkoniyatga ega bo‘lgan iste‘dodlar olami paydo bo‘ladi. Davrning fazl-u hunar egalariga bemuruvvatligi, “doim afsunsoz-u g‘addor” ekani juda ko‘p misollar orqali isbotlanadi. Garchi asarlarda shoirlar, she‘r havaskorlari va ilm-fan namoyandalaridan 459 kishining ijodi haqida mulohaza yuritilsa-da, undagi bosh qahramon – muallifning o‘zi va bosh masala – she‘r-u shoirning taqdiridir. Navoiy she‘r va shoirning jamiyatda, hayotda tutgan o‘rni masalasiga ko‘p ahamiyat beradi. Navoiy ko‘pchilik asarlarida qissaxon, hikoyachi sifatida maydonga chiqadi. Agar biz muallifning asarlariga yozilgan debochalardagi, dostonlardagi, tabarruk maslakdoshlariga bag‘ishlangan risolalardagi tarjimayi holiga doir ayrim ma‘lumotlarni hisobga olmasak, uning ko‘p qirrali shaxsiyati, eng yaxshi xislatlarga boy ma‘naviy qiyofasi hech qayerda “Majolis un-nafois”dagi singari har tomonlama mukammal gavdalanmaydi, desak xato bo‘lmaydi. Salafлари, keksa zamondoshlari, tengdoshlari va “yaxshi tablik yigitlar” ijodini baholash jarayonida adabiyotshunos, tanqidchi, maslahatgo‘y,

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva* mehribon ustoz, shoirlarga moddiy va ma'naviy himoyachi, nozik didli san'atkor, adabiyot maydonining pokizaligi yo'lida jonbozlik ko'rsatgan nazm ahlining yetakchisi, charog'boni sifatida butun salobati ila ko'rinadi.

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasidagi majlislarida shoirning pedagogik qarashlari va ushbu asarni tarkibiy tuzilish hamda badiiy jihatdan o'rganish jarayoni quyidagi xulosalarga olib keldi:

Navoiyning tazkirasigacha bir qancha tazkiralalar yaratilgan: "Lubob ul-albob", "Tazkirat ush-shuaro", "Bahoriston" ning 7-ravzasi va boshqalar. Ammo ular asosan fors-tojik tilida bo'lganligi, faqatgina ijodkorlarning hayotiga oid ma'lumotlarga berilganligi sababli o'z ona tilimizdagi, o'zbek tilidagi Navoiyning tazkirasiga ehtiyoj juda katta bo'lgan.

"Majolis un-nafois" tazkirachilikda yangi va juda qimmatli asar sifatida vujudga keldi hamda o'zbek tazkirachiligiga asos bo'ldi.

Bu tazkiraning ko'zga tashlanadigan birinchi jihati shundaki, Navoiy unga o'zi yashab turgan davrdagi ma'lum shoirlar va shoir bo'lishga harakat qilgan qalam ahllarini kiritishni asosiy maqsad qilib qo'ygan.

Tazkira boshqa xalqlar adabiyotlaridagi tazkirachilikning bundan keyingi taraqqiyotiga chuqur ta'sir ko'rsatdi, "Majolis un-nafois"dan keyin paydo bo'lgan tazkiralarning mualliflari asarlarini asosan o'z davrlaridan kelib chiqib tuza boshladilar.

Navoiy tazkirasining eng muhim xususiyatlaridan yana biri u asosan o'zbek va tojik adabiyotlari tarixiga doir asar, bunda biz har bir shoirning hayoti va ijodiga tegishli oz-oz bo'lsa ham, lekin muhim ma'lumotlarni olamiz. Mana shu jihatlari bilan "Majolis un-nafois" yozilganidan oz fursat o'tmay Sharq mamlakatlarining shoirlari, tarixchilari, olimlari diqqatini ko'p marta o'ziga jalb eta boshlagan edi.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshida o'tgan ozarbayjonlik adabiyotshunos Sodiqbek kitobdor "Majolis un-nafois"dan ilhomlanib va foydalanib Navoiy ona tilida - o'zbek tilida "Tazkirai majmaul-havos"ni tuzdi.

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva*  
O‘zbek tazkirachiligining to‘ng‘ich asari bo‘lgan “Majolis un- nafaos” o‘zbek tilida bir qator tazkira yoki majmua va bayozlarning vujudga kelishiga yo‘l ochdi va bir namuna bo‘lib xizmat qildi.

“Majolis un- nafaos”da Navoiy faqatgina shoirlar haqida emas, balki turli kasb egalari haqida ma‘lumot beradi va ularni birlashtirib turgan adabiyotga muhabbat, adabiyotga qobiliyat masalasini ta‘kidlaydi, tahlil qiladi va o‘z o‘rnida tanqid ham qiladi.

Alisher Navoiy buyuk olim sifatida o‘z tazkirasida talay shoirlar ijodini tahlil qilish bilan bir qatorda, umuman adabiyot nazariyasi, xususan she‘riyat muammolarini o‘rtaga tashlaydi va hal qilib o‘tadi. Navoiy o‘sha davr madaniy hayotining asosiy muammolaridan hisoblangan shakl va mazmun masalalarini diqqat markaziga qo‘yadi. U badiiy asarlarning shakli va mazmuni haqidagi ilg‘or fikrlarni himoya qiladi, shaklning mazmundan ustun qo‘yilishiga qarshi chiqadi.

Tazkirada Navoiyning yuksak pedagogik qarashlari, ijod ahliga berilgan baho va ijodkorlarga qo‘yilgan talablari aks etadi.

Navoiy tazkirasining qimmatli tomonlaridan yana biri uning o‘sha davr adabiy mahsulotidan boy namunlarni o‘z ichiga olganligidir. “Majolis un- nafaos”ga kirgan shoirlarning aksariyatining asarlari bizgacha yetib kelmagan bo‘lib, ularning o‘zlari va ijodlari haqida faqat tazkira bergan ma‘lumotlargagina egamiz.

Tadqiqotimiz davomida tazkiraning ikki tahriri haqidagi g‘oyat qiziqarli ma‘lumotlarga duch keldik. Uning birinchi tahriri 1948-yilda, ikkinchisi esa 1966, 1997 hamda 2011-yillarda chop etilgan Navoiy asarlarining to‘plamlarida keltirilgan. Birinchi tahrirda shoirlar soni 345 ta, ikkinchi tahrirda esa 459 ta deb ko‘rsatilgan. Asarning ikki tahriri muqoyasa qilinganda, Navoiyning shoirlar ijodi, adabiy jarayonga, yosh iste‘dodlarga yangicha munosabati namoyon bo‘ladi.

Bitiruv malakaviy ishimizga umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, she‘riyat mulkining sultoni, buyuk adabiyot namoyandasi ham tanqidchisi bobomiz Alisher Navoiyning “Majolis un-nafaos” asari o‘zbek tazkirachiligining asosi hisoblanadi.

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva*  
Unda keltirilgan ma'lumotlar har bir o'zbek kitobxoni, Navoiyni sevib mutolaa qiluvchilar uchun juda ham foydali manba bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz. Ushbu asarni qancha o'qib, o'rgansak, maqsadli tadqiqotlar olib borsak, Navoiy merosini o'rganishdagi savobli ishlarga oz bo'lsa-da o'z hissamizni qo'shgan bo'lar edik.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Абдуғафуров А. Навоий сатираси. –Тошкент, 1966.
3. Иномхўжаев С. Алишер Навоий ва бадий сўз санъати //Ўзбекистон маданияти. –Тошкент, 1966. №37.
4. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент, 1976.
5. Ойбек. Навоийнинг “Мажолисун нафоис” асари ҳақида. –Тошкент, 1979.
6. Рустамов А. Навоийнинг бадий махорати, –Тошкент, 1979.
7. Хайитметов А. “Мажолисун-нафоис”нинг ноёб бир нашри ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент: Фан, 2004, №2.
8. Хайитметов А. “Мажолисун нафоис” ҳақида баъзи мулоҳазалар. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. –Тошкент, 1958. №1.
9. Шайхзода М. Навоийнинг фалсафий қарашлари ва поэтик махорати ҳақида. –Тошкент, 1978.
10. Ўзбек адабиёти тарихи. Муаллифлар гуруҳи. 5 томлик. 2-том. –Тошкент, 1977.
11. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”асарига тайёрлаган илмий-танқидий матн. –Тошкент: Фан, 1966.
12. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”нинг икки таҳрири // Халқ сўзи. – Тошкент, 2013. № 28.
13. Ғаниева С. Шоира Меҳри // Ўзбекистон маданияти. –Тошкент, 1960, 9-май сони.
14. Ғаниева С. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” тазкираси ва туркман адабий ҳаёти // Совет адабиёти, –Ашхабад, 1987. № 6.
15. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”га изоҳ ва таржималар. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 13 том. –Тошкент: Фан, 1997.



16. Ғаниева С. Учинчи таржима: (“Мажолис ун-нафоис”нинг форсча таржимаси”) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати . –Тошкент,1998, 6-февраль сони.

17. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис” ва “Замима” тазкиралар. // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2003, №1,2.

18. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”нинг Туркия нашри. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. –Тошкент, 2006, 3-март.

19. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис” ҳақида янги маълумот. // Буюк ва муқаддасан, мустақил ватан (тўплам). Т-2011.

20. Ғаниева С. Алишер Навоий “Мажолис ун-нафоис”: илмий-танқидий матн. –Тошкент, 1961.

21. G‘aniyeva S. Oshiqmiz jahonni o‘rtovchi. // Kitob dunyosi. –Toshkent, 2012-yil 5-oktabr.

22. G‘aniyeva S. Gar dilbaru dilhoh esang. // Kitob dunyosi. –Toshkent, 2012-yil, 1-noyabr.

23. G‘aniyeva S. Fozil va hunarmandlarning tab’i nazmi. // Kitob dunyosi. –Toshkent, 2013-yil 9-yanvar, 1-son.

***Chet tilida:***

24. Боровков А.К Маджалис ан-нафаис (собрание редкосных. Отделение литературы и языка).1927.

25. Хайитметов А. Творческий метод Навои. –Ташкент, 1965.

26. Каюмов А. П. Алишер Навои // История всемирной литературы: В 9 томах. –Ташкент: Наука, 1985.

***Internet saytlari:***

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

[www.google.uz](http://www.google.uz)

[www.google.ru](http://www.google.ru)

■ Bitiruv malakaviy ishi • ~~~~~ • *Shoira Saydullayeva*

[www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)

[www.dic.academic.ru](http://www.dic.academic.ru)

[www.ngmk.uz](http://www.ngmk.uz)

[www.turklib.com](http://www.turklib.com)

